

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI  
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**



**FILOLOGIYA FAKULTETI**

**O‘ZBEK TILI KAFEDRASI**

**5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta‘lim yo‘nalishi**

**4- „V“ kurs talabasi**

**RAXMANOVA MOHIRA NORBOY QIZI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: «O‘ZBEK TILI TARIXIY TARAQQIYOTIDA FE‘L  
ZAMONLARI SHAKLLARINING EVOLYUTSION O‘ZGARISHI»**

Talaba:

M. Raxmanova

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dots. E.Xo‘janiyozov

Kafedra mudiri:

f.f.n., dots. Sh.Yuldasheva

*O‘zbek tili va O‘zbek adabiyoti kafedralari qo‘shma yig‘ilishining  
2019- yil 10- maydagi 4- bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.*

**NUKUS – 2019****Davlat attestatsiya komissiyasi****QARORI:**

5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4-«V» kurs talabasi Raxmanova Mohira Norboy qizining «O‘zbek tili tarixiy taraqqiyotida fe’l zamonlari shakllarining evolyutsion o‘zgarishi» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga «\_\_\_» ball («\_\_%») qo‘yilsin.

«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2019- yil

**DAK kotibi:**

**O. Xaytboyev**

## MUNDARIJA

--	--	--

### **I Bob. Kirish**

- 1.1. O'tgan zamon fe'l shakllarining taraqqiyoti.**
- 1.2. O'tgan zamon sodda fe'l shakllari va uning taraqqiyoti.**
- 1.3. O'tgan zamon sifatdosh shakllarning ma'nolari va taraqqiyoti.**

### **II. Bob. Hozirgi zamon fe'l shakllarining taraqqiyoti. Kelasi zamon**

- 2.1 a / -ə (y) affiksli ravishdosh asosida yasalgan hozirgi zamon fe'li.**
- 2.2. a / - ə (y) affiks ravishdosh asosida yasalgan hozirgi zamon fe'lining evolyutsiyasi haqida.**
- 2.3. – g'ay – affiksli forma.**
- 2.4. – g'u – affiksli forma.**

### **III. Bob. Fe'l zamonlarini maktab darsliklarida o'qitilishi.**

- 3.1 Fe'l zamonlari mavzusi yuzasidan ishlangan dars ishlanmalari**

**Umumiy xulosalar.**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi:** O‘zbek adabiy tili uzoq tarixiy taraqqiyotiga va ko‘p sonli adabiy merosiga ega. Bu asrlar osha o‘zbek adabiy tilining o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini ko‘rsatuvchi yozma dalillardir. Shu sababli ham yozma adabiy matnlarga, an‘analarga asoslangan holda o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotini o‘rganish o‘zbek adabiy tilining qanday taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirganligini aniq tasavvur qilishga imkon beradi. Bu holat uning taraqqiyot bosqichlarini oldingi asrlardagi yozma manbalardan o‘rganib, shu asosda ma’lum bir xulosalarga kelishi kerakligi haqidagi masalalarni kun tartibiga qo‘yadi.

Tilshunosligimiz tarixida fe‘l zamonlari, mayllari, fe‘l shakllarining turli xil ko‘rinishlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning anchasi ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, Bu sohada A.G‘ulomov, U.Tursunov, J.Muxtorov, T.Xo‘jayev, G‘.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, A.M.Shcherbak, A.A.Kuklyanova, A.Xojiyev kabilarning tadqiqotlarini ko‘rsatish mumkin. Ularda fe‘l zamonlari, fe‘l mayllari, fe‘lning har xil funktsional shakllari haqida turli nuqtayi nazardan olib borilgan tadqiqotlar mavjud. Bu ishlardan fe‘l zamonlari va fe‘l mayllari haqida diqqatga arzirli fikrlar bayon qilingan. Ayniqsa, fe‘l zamonlari haqida Sh.Shukurovning „O‘zbek tilida fe‘l zamonlari taraqqiyoti“(T.1976-y) monografiyasi va G‘.Abdurahmonov Sh.Shukurovning „O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. Morfologiya va sintaksis“(T.1973-y) asarlarida qimmatli fikrlar bayon etilgan.

Ammo fe‘l zamonlarining taraqqiyoti masalalari shu bilangina cheklanib qolmay balki, o‘sha olimlar nazari tushmagan eski yozma manbalarda fe‘l zamonlari taraqqiyotining yangidan-yangi qirralari topilib qolishi mumkin. Shuni e‘tiborga olib fe‘l zamonlari taraqqiyoti masalalarini o‘zimizning malakaviy bitiruv ishimizning ob‘ekti qilib oldik va shu asosda o‘zimizning shaxsiy fikrlarimizni bildirishga harakat qildik.

Fe'l zamonlari taraqqiyoti o'ziga xos taraqqiyot yo'liga ega. Bularni faktik materiallar asosida bayon qilish va ularni aniq ko'rsatib berish, bundan bexabar bo'lgan maktab o'quvchilari, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari talabalari uchun ham foydadan holi bo'lmaydi. Demak bizning malakaviy ishimizning materiallari ularda ham shu bo'yicha muayyan bir ko'nikma, malaka, bilimlarni hosil qilishga yordam berishi tabiiy. Shu nuqtayi nazardan qaraganda bizning malakaviy ishimizdagi materiallar ko'pgina kishilarga yordam berishi mumkinki, ular ishning dolzarbligini ta'minlaydi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi:** Fe'l zamonlari taraqqiyoti o'zbek, rus va boshqa turkiy tilshunoslik materiallari asosida turli olimlar tomonidan o'rganilgan va ularda fe'l zamonlarining harakterli xususiyatlari bayon qilib berilgan.

O'zbek tilshunoslaridan A.G'ulomov, T.Xo'jayev, A.Xojiyev kabilarning fe'llarning ba'zi bir kategoriyalari haqidagi tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin. Yuqorida nomlari ko'rsatilgan tadqiqotlar bizning malakaviy ishimiz uchun ilmiy-nazariy asos vazifasini bajardi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Tadqiqotning maqsadi o'zbek tili tarixiga tegishli bo'lgan yozma manbalardan fe'l zamonlari tarixiga tegishli bo'lgan yozma manbalardan fe'l zamonlari taraqqiyotiga doir materiallarni to'plab, ularni lisoniy tasnif qilishdan iboratdir. Shuningdek unda ilmiy adabiyotlarda bayon qilingan fikrlarga munosabat bildirgan holda fe'l zamonlari taraqqiyoti masalalariga oydinlik kiritishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ilmiy adabiyotlarda mavjud bo'lgan fikr va qarashlarni umumlashtirgan holda zamon shakllari haqida ma'lumotlar berish va ularning o'zimiz to'plagan materiallarga tadbiq etish;

- o'tgan zamon fe'l shakllari taraqqiyotini belgilash va ularning –de, duq, mish, g'an shaklli formalarning o'tgan zamon shakli sifatida yozma manbalarda qo'llanilishini tahlil qilish va ularning ahamiyatini belgilash;

-b affiksli ravishdosh asosida yasalgan o'tgan zamon fe'llarining alib+turur+men, alib+tur+men, alib+men tipidagi qo'llanilishlarini tahlil qilish va ularni to'plagan materiallar asosida izohlash;

- o'tgan zamon fe'lining analitik shakllarini materiallar asosida ko'rsatish va ularni o'zimiz to'plagan materiallar asosida tadbiq etish;

- hozirgi zamon fe'l formalarining -a, -y affiksli ravishdosh asosida yasalgan shakllarini tahlil qilish va bularning ala+turur+men, ala+dur+men, ala+men tipidagi shakllarini tahlil etish va ularni to'plagan materiallar asosida isbotlash;

- hozirgi kelasi zamon fe'l shakllarini to'plagan materiallar asosida izohlash va kelasi zamonning -g'ay, g'u shaklli formalar asosida yuzaga kelishini ko'rsatib berish.

**Tadqiqot obyekti:** Tadqiqot obyekti mumtoz adabiyotimiz adabiy yozma manbalarida mavjud bo'lgan fe'l zamonlariga tegishli grammatik shakllarni to'plash va shu asosda muayyan bir xulosalarga kelish ishning obyekti hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti:** Tadqiqotning predmetini A.Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy va boshqa adiblarimizning asarlarida mavjud bo'lgan o'tgan, hozirgi va kelasi zamon fe'l shakllariga doir bo'lgan va to'plagan materiallarni lisoniy tahlil qilish, ularga sharhlar berish va ularning taraqqiyot tendensiyalarini hozirgi davrga xos bo'lgan grammatik shakllar bilan qiyoslagan holda ma'lum bir xulosalarga kelish uning predmetini tashkil qiladi.

**Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari:** Tadqiqotning metodologik asoslarini O'zbekiston Respublikasi Milliy mustaqilligi g'oyalari va mafkurasida bayon qilingan fikr va qarashlar tashkil qiladi va shuningdek prezidentimiz tomonidan hozirgi davrda ilgari surilayotgan o'tmish milliy-madaniy yodgorliklariga munosabat, milliy meroslarni asrab avaylash, xalqimiz tarixiga va tiliga tegishli manbalarni sinchiklab o'rganish kabi masalalar tashkil qiladi. Shuningdek unda lisoniy tahlil, qiyoslash, tavsiflash, ilmiy bayon qilish usullari keng qo'llaniladi.

### **Ishning ilmiy yangiligi:**

Ishning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Malakaviy ishda birinchi bor o'tgan zamon fe'l shakllarining tilimiz tarixida qanday shakllarga ega bo'lganligi, ularning taraqqiyot tendensiyalari to'plangan materiallar asosida to'la izohlanadi va ko'rsatib beriladi;

- mumtoz adabiyotimizga xos bo'lgan yodgorliklarda hozirgi zamon fe'l shakllarining ishlatilishi bo'yicha materiallar to'plandi va ular mavjud ilmiy adabiyotlarga tayangan holda tarixiy nuqtayi nazardan tahlil etildi;

- ishda hozirgi va hozirgi kelasi zamon fe'l shakllariga xos bo'lgan grammatik shakllar yozma yodgorliklar tilidan to'plandi va ular shakl va mazmun birligida lisoniy tahlil etildi;

- ular qiyosiy planda hozirgi zamon fe'l shakllari bilan taqqoslandi va ularning tarixiy taraqqiyot bosqichlari ko'rsatib berildi.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda o'zbek tili fe'l zamonlari taraqqiyoti tarixiy fonda tasvirlab berildi va hozirgi davr fe'l shakllarining shunday holatga ke'lishiga asos bo'lgan fe'l shakllari lisoniy tahlildan o'tkazildi, bu esa fe'l zamonlarining o'rta maktablarda, oliy ta'lim muassasalarida aniqroq tushuntirishga asos bo'ldi va bu o'quvchilarning, talabalarning hozirgi davr fe'l shakllarini yaxshi bilib olishiga va ularning taraqqiyotini aniq tasavvur qilishga imkon yaratadi.

Ishning amaliy ahamiyati shundaki, uning materiallari mumtoz adabiyotimizni yaxshi tushunishga fe'l zamonlari taraqqiyotining hozirgi holatiga asos bo'lgan fe'l shakllarini to'g'ri anglashga yordam beradi, tilning tarixiy rivojlanish bosqichlarini keng tushunishga imkon yaratadi.

### **Ishning tuzulishi va hajmi:**

Ish kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 68 betdan iborat

## I BOB. O‘TGAN ZAMON FE’L SHAKLLARINING TARAQQIYOTI

### 1.1. O‘tgan zamon sodda fe’l shakllari va uning taraqqiyoti

Hozirgi turkiy tillarning ko‘pchiligi bo‘yicha fe’lning mayl va zamon masalasi ma’lum darajada o‘rganilgan va bu sohada qator ishlar qilingan. Lekin bu masala keyingi vaqtlarda ham turkologiyaning eng aktual va asosiy problemalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Turkiy tillarda fe’lning mayl va zamon kategoriyalari masalasi bo‘yicha 1962-yil Bokuda o‘tkazilgan koordinatsion yig‘ilish natijalari bu masalaning nihoyatda murakkab va aktual ekanligini, ayniqsa, uning tarixiy planda o‘rganilishi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.<sup>1</sup>

Hozirgi o‘zbek tilida fe’lning mayl va zamon kategoriyalari bo‘yicha dissertatsiyalar himoya qilingan, monografiya va maqolalar e’lon qilingan. Bu haqida darslik va qo‘llanmalarda ham ancha keng ma’lumotlar berilgan. Lekin bu sohada hali o‘z ifodasini topmagan masalalar oz emas. Masalan, mayl va zamon turlari, bu kategoriyalarni ifodalovchi formalarning miqdori va chegarasi, bu formalardan har birining mayl va zamon sistemasidagi o‘rni, bularning o‘zaro munosabati kabi masalalar bo‘yicha adabiyotlarda har xil fikr va mulohazalar bayon qilingan.

Jumladan, hozirgi o‘zbek tilida fe’lning nechta mayl turi borligi va bularning nomlanishi masalasida tilshunoslar o‘rtasida birlik yo‘q. To‘g‘ri, ko‘pchilik ishlarda hozirgi o‘zbek tilida fe’lning uch mayl turi borligi qayd qilinadi. 1) aniqlik mayli; 2) buyruq-istak mayli (yoki buyruq mayli); 3) shart mayli. Lekin buyruq, istak kabi ma’nolarni ifodalovchi mayl formalari bu ishlarning ayrimlarida “buyruq mayli”,<sup>2</sup> boshqalarida “buyruq-istak mayli”<sup>3</sup> nomi bilan ataladi. Ba’zi ishlarda esa quyidagi to‘rt mayl turi ko‘rsatiladi: 1) buyruq mayli; 2) aniqlik mayli; 3) shart mayli; 4) istak mayli.<sup>4</sup> Bu ishlarda buyruq-istak maylining I shaxs birlik va ko‘plik

<sup>1</sup>Совещание по вопросам категорий времени и наклонения глагола в тюркских языках (Тезисы докладов). Баку, 1961. Ўйғилиш номлари кейинчалик «Вопросы категорий времени и наклонения глагола в тюркских языках» (Баку, 1968) номи билан нашр этилган.

<sup>2</sup> А. Фуломов. Фель, Тошкент, 1954, 45 б.

<sup>3</sup> У. Турсунов, Ж. Мухторов, Ш. Раҳматуллаев. Ҳозирги ўзбек адабий тили, Тошкент, 1965, 82 б.

<sup>4</sup> А. Н. Кононов. Грамматика современного узбекского литературного языка. М. 1960, с. 202.



formalari alohida mayl turi sifatida qaralib, bular “istak mayli” nomi bilan ataladi, II va III shaxs formalari esa “buyruq mayli” nomi bilan alohida gruppaga ajratiladi.

T. Xo‘jaevning fe‘l mayllari va zamonlari masalasiga bag‘ishlangan maqolasida ham buyruq-istak mayli ikki mustaqil mayl turiga ajratilgan (buyruq mayli, istak mayli). Bundan tashqari, avtor *aytsa ham (aytsa-da)* tipidagi formalarni, shuningdek, *aytishi kerak (lozim, zarur)* tipidagi birikmalarni ham alohida mayl turlari sifatida qaraydi va bulardan birinchisini (*aytsa ham, aytsa-da*) “to‘siqsizlik mayli”, ikkinchisini esa (*aytishi kerak*) “vazifa mayli” nomi bilan ataydi. Shunday qilib, T. Xo‘jaev hozirgi o‘zbek tilida quyidagi olti mayl turi bor, deb ko‘rsatadi: 1) aniqlik mayli; 2) buyruq mayli; 3) istak mayli; 4) shart mayli; 5) to‘siqsizlik mayli; 6) vazifa mayli.<sup>5</sup>

A. Hojievning hozirgi o‘zbek tilida fe‘lning mayl turlari haqidagi maqolasida masalaga boshqacharoq qaraladi. Avtor, birinchidan, “aniqlik mayli” termini shu mayl gruppasiga kiruvchi formalarning xarakteriga mos kelmasligi haqida gapirib, bu maylni “ijro mayli” deb atash ma‘qul ekanligini aytadi, ikkinchidan, *-moqchi* affiksi bilan yasalgan *ishlamoqchi* tipidagi formani alohida mayl turi sifatida qaraydi va uni “maqsad mayli” deb ataydi, uchinchidan, odatda “o‘tgan zamon davom fe‘li” deb ataluvchi *ishlar edi* tipidagi analitik formasini omoforma hisoblab, bu forma rus tilidagi “soslakatel’noe naklonenie”ga mos keluvchi ma‘nosi bo‘yicha alohida mayl turini tashkil etadi, deb qaraydi va bu maylni “shartli mayl” nomi bilan ataydi.

Hozirgi o‘zbek tilida fe‘l zamonlari va bularni ifodalovchi formalarning miqdori va chegarasi, bu formalarning o‘zaro munosabati, ayrim formalarning qaysi zamon yoki qaysi mayl gruppasiga oidligi kabi masalalar bo‘yicha ham adabiyotlarda turli fikr va mulohazalar aytilgan va har xil qarashlar bor (bu xildagi masalalar haqida ish davomida o‘rni bilan to‘xtab o‘tiladi).

---

<sup>5</sup> T. Хўжаев. Ўзбек тилида феъл ва майл масалалари, “Труды СамГУ» новая серия, вып. № 124. Самарканд 1963, с. 103.

O‘zbek tili tarixini o‘rganish ma’lum traditsiyaga ega. Arab o‘zbek klassik adabiyotiga oid manbalar, xususan, Alisher Navoiy asarlari bo‘yicha tuzilgan tarixiy lug‘atlar va bu lug‘atlarga ilova qilingan grammatik ocherklarini hisobga olmasak eski o‘zbek tilini o‘rganish asosan XIX asrning o‘rtalaridan boshlangan, deb aytish mumkin. Lekin o‘tgan asrda o‘zbek tili tarixi bo‘yicha bajarilgan ishlar ayrim asarlarni nashr etish va ularga lingvistik izohlar berish bilan chegaralangan.

O‘zbek tilining tarixiy grammatikasiga oid masalalar, xususan, fe’l mayllari va zamonlarinng tarixiy taraqqiyoti masalasi keyingi yillargacha monografik tekshirish obyekti bo‘lgan emas. 1865-yilda N. I. Il’minskiyning “Boburnoma” tilidagi *-r*, *-g‘ay*, *-g‘u* va boshqa ayrim fe’l formalarining tahliliga bag‘ishlangan ishi e’lon qilingan edi.<sup>6</sup> Lekin Ya. Shinkevichning “Qissasi Rabg‘uziy” tiliga bag‘ishlangan asari e’lon qilingunga qadar o‘zbek tilining tarixiy grammatikasi bo‘yicha bu xildagi ishlar yuzaga kelmadi.

G. Vamberi, K. Brokkel’man va A. M. Shcherbakning grammatikalarida, shuningdek, ayrim yozma yodgorliklarning til xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan ishlarda o‘zbek tili taraqqiyotining ma’lum davrlarida yoki tekshirilayotgan yodgorlik tilida amalda bo‘lgan mayl va zamon formalari haqida ham boshqa grammatik kategoriyalar singari qisqa va umumiy ma’lumotlar berilgan. Bu ishlarning xarakter va vazifasi ham shuni taqozo qiladi.<sup>7</sup>

O‘zbek tilshunosligida, shuningdek, boshqa turkiy tillarga oid adabiyotlarda zamon kategoriyalarining mohiyatini tushunishda va bularni ta’riflash masalasida ziddiyat yo‘q. Adabiyotlarda ta’kidlanishicha, zamon kategoriyasi harakat yoki holatning nutq momentiga munosabatini ko‘rsatadi. Mayl va zamon kategoriyalari o‘rtasidagi chegarani belgilash, bu kategoriyalarni ifodalovchi formalarni klassifikatsiya qilish kabi qator masallar bo‘yicha tilshunoslar o‘rtasida birlik

<sup>6</sup> Н. И. Ильминский. Материалы для джагатайского спряжения из Бабер-намэ. Казань 1865.

<sup>7</sup> Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси бўйича олий ўқув юртлари учун нашр этилган қўлланма ҳам эски ўзбек тилида истеъмолда бўлган майл ва зamon формалари ҳақида шу хилда умумий маълумотлар берилган (Ғ. Абдурахманов, Ш. Шукуров. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. Тошкент, 1973).

yo‘q. Bu hol ba‘zi formalarning mayl va zamon kategoriyalaridan qaysi biriga aloqadorligini aniqlash masalasida, hatto, aynan bir til doirasida har xilliklar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan. Tilshunoslarning bir gruppasi ba‘zi formalarni u yoki bu belgisiga ko‘ra mayl kategoriyasiga kiritsalar, boshqalari shu formalarni boshqa xususiyatlariga asoslanib, zamon formasi sifatida qaraydilar.

O‘zbek tilshunosligida, shuningdek, boshqa turkiy tillarga oid adabiyotlarda fe‘lning mayl va zamon kategoriyalari bo‘yicha bunday har-xil qarashlarning paydo bo‘lishidagi sabablaridan biri bu kategoriyalar o‘rtasida formal jihatdan qat‘iy differentsiatsiya yo‘qligidadir. Birinchidan, bir vaqtning o‘zida mayl va zamon ma‘nolarini ifodalash uchun ikkita affiks qator ishlatilmaydi. Ikkinchidan, bir forma, bir tomondan, mayl ma‘nosini ifodalash uchun xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ish-harakatning zamonga munosabatini ko‘rsatishi mumkin.

Turkiy tillarda fe‘l mayllari va zamonlari o‘rtasida semantik hamda formal jihatdan qat‘iy differentsiatsiya bo‘lmasligining ma‘lum tarixiy sabablari bor. Gap shundaki, turkiy tillarda fe‘l mayllari va zamonlari genetik jihatdan biri ikkinchisi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan kategoriyalarni tashkil etadi, ya‘ni bu kategoriyalar tarixan bir xil manba asosida rivojlangan, aniqrog‘i, mayl formalari ham, zamon formalari ham sifatdosh formalari asosida shakllangan.<sup>7</sup> Bu holni mavjud til faktlari tasdiqlaydi.

Hozirgi turkiy tillarda u yoki bu zamon, yoki mayl gruppasiga mansub bo‘lgan *alмыш, algan, olar // olur//alыр) almas // almaz // almar), aлыор, alyor, alayatыр (alajatыр), alajon, alasы* va boshqa ayrim formalarning asosi sifatdosh ekanligi ma‘lum.

Tarixiy taraqqiyot protsessida mayl va zamon formalarining ayrimlarida sifatdoshlik xususiyati sezilmaslik darajaga kelib qolgan, ayrimlarida esa sifatdosh belgisi butunlay tushib qolgan.

---

<sup>7</sup> Н.А.Баскаков. Система спрежение или изменение слов по лицам в языках тюрской группы. стр. 280.

*Aldım* va *alıbman* tipidagi oʻtgan zamon feʼllari *alaman* tipidagi hozirgi-kelasi zamon feʼli, *alsam* tipidagi hozirgi-kelasi zamon shart feʼli, *algʻaymon* va *alay* tipidagi istak mayli formalari, buyruq-istak maylining I shaxs birlik va koʻplik formalari shular jumlasidandir. Faktlarning tarixiy-qiyosiy analizi bu formalarning ham sifatdosh formalari asosida shakllangan ekanligini koʻrsatadi.

Tilimizning tadrijiy rivojlanishini va uning bosib oʻtgan tarixiy bosqichlarini bilmaslik toʻla maʼrifatlilik deb hisoblash mumkin emas. Shuning uchun ham oʻzbek tili tarixini oʻrganish va undagi shakl va formalarning tarixda qanday boʻlganligini bilib olish haqiqiy maʼrifatlilikning asosiy belgisidir. Shu maqsadda biz maʼnaviy ishimizda feʼl zamonlari shakllarining evolyutsion taraqqiyotini oʻrganishga jazm etdik. Chunki tilimizning hozirgi holatini bilish uchun uning tarixda bosib oʻtgan yoʻlini va undagi mayllarining, grammatik hodisalarining kelib chiqish tarixini oʻrganish maʼnaviyatimizni tiklashga til tarixi bobidagi bilimlarimizning mukammal boʻlishiga yordam beradi. Oʻzbek tili tarixi va undagi leksik grammatik formulalarning kelib chiqishi haqida A.K.Borakov, A.M.Shcherbak, A.Gʻ.Gʻulomov, M.Mirzaev, S.Usmanov, E.Rasulov, A.N.Kononov, A.Hojiev, N.A.Baskakov kabi olimlar bir muncha fundamental ishlar bajargan boʻlsa ham hali oʻzbek tili tarixi va uning bosib oʻtgan yoʻllari haqida qilinajak ishlar anchaginadir. Bu bizning malakaviy ishimizning dolzarbligini va ahamiyatligini belgilab beradigan holatdir.

Eski oʻzbek tilida oʻtgan zamon feʼlining *-ды* affiksli formasidan tashqari *-мыш*, *-duq*, *-gan* affiksli sifatdoshlar va *-b* affiksli ravishdosh asosida hosil boʻlgan sodda formalari isteʼmolda boʻlgan. Bu formalar ifodalagan maʼnolariga koʻra ikki gruppaga ajraladi:

1. *-ды*, *-duq* affiksli formalar; 2. *-мыш*, *-gan*, *-b* affiksli formalar.

Oʻtgan zamon feʼlini yasovchi *-ды* affiksi eski oʻzbek tilida xam qadimgi turkiy yodgorliklar tilida va hozirgi singarmonizmli turkiy tillardagi kabi jarangli *-ды/-di* va jarangsiz *-ты/-ti* variantlariga ega boʻlib, bulardan qaysi birining ishlatilishi har bir tilning oʻziga xos fonetik qonuniyatlari va shu affiksni qabul qilgan feʼlning xarakteri bilan bogʻliqdir. Eski oʻzbek tilida *-ды* affiksining

jarangli va jarangsiz variantlarda ishlatilishi bobida qadimgi yodgorliklar bilan o'xshash tomonlar bo'lishi bilan birga ma'lum farqlar bor.

Bu masalada qadimgi yodgorliklar o'rtasida ham o'zaro farqlar mavjud bo'lib, bu manbalarni mazkur masala bo'yicha shartli ravishda uch gruppaga bo'lish mumkin: 1. O'rxun-enisey yodgorliklari; 2. XI asr yodgorliklari – «Qutadg'u bilig» va «Devonu lug'otit turk» asarlari; 3. Qadimgi uyg'ur tiliga oid matnlar. Shu bilan birga har bir gruppaga oid manbalar o'rtasida ham juz'iy farqlar bor. 1. O'rxun-enisey yodgorliklarida *-dɨ* affiksining jarangli va jarangsiz variantlarda ishlatilishi quyidagicha bo'lgan:

O'rxun yozuvlarida, jumladan, «Kultegin» va «To'nyuquq» yodnomalarida [l], [r] [n] sonor tovushlari bilan tugagan fe'llarga jarangsiz *-tɨ/-ti* variantlari qo'shilgan: *qaltɨ*, *kolti*, *urtɨ*, *kerti*, *ɵynti* kabi. Boshqa o'rinlarda esa jarangli *-dɨ/-di* variantlari qo'shilgan: *b'asdɨ*, *tutdɨ*, *suletdi*, *qachdɨ*, *sɵzleshdi*, *ichishdi*, *teydi*, *buzdɨ*, *yaydɨ*, *suledi*, *bitidi* kabi.

Enisey yozuvlarida ham asosan shu xilda bo'lib, ba'zan bu tartibning buzilish hollari ham kuzatiladi. Ya'ni [l], [r], [n] sonorlari bilan tugagan ayrim fe'llarga jarangli *-dɨ/-di* variantlari ham qo'shilgan. Masalan: *adɨrɨltɨ//adɨrɨldɨ*, *ɵlti//ɵldi*. Hatto bir yozuvning o'zida *adɨrɨl*-fe'lga ikki marta jarangsiz *-tɨ* (*adɨrɨltɨ*), bir marta jarangli *-dɨ* (*adɨrɨldɨ*) variantda qo'shilishi ham qayd qilindi. Enisey yozuvlarida mavjud bo'lgan bu hodisaga S.E.Malov ham alohida e'tibor bergan va bu hol shu yodgorliklar tilida qandaydir dialektal xususiyatning aks etishidir, degan fikrni aytgan.

Shu bilan birga, o'rxun matnlarida faqat jarangli *-dɨ/-di* variantlari qo'shiladigan fe'llarning ayrimlariga enisey yozuvlarida jarangsiz *-tɨ/-ti* variantlari qo'shilishi ham kuzatishadi: *qachdɨ//qachtɨ*, *ketdi//ketti*, *tindi//tinti*, *ugadɨ//ug'atɨ* kabi.

Enisey yodgorliklarida uchraydigan bunday xususiyatlar S.E.Molovning «Pamyatniki drevnetyurskoy pismennosti Mongoli i Kirgizi» kitobida berilgan tekstlarda ham kuzatiladi. Qiyoslang *bolɨ* (16, 27, 35, 72 betlar)-*boldɨ* (75-76

betlar). Erti (8,9,16 betlar)-erdi (80-83 betlar), bartyg‘ (53-bet) bardıymız (45-bet), suleti (8,45 betlar)-suledi (10 bet) toqıtdım (9-bet)-toqıttım (19-bet).

2. XI asr yodgorliklari – «Qutadg‘u bilig» va «Devonu lug‘atit turk» asarlarida jarangsiz undosh bilan tugagan fe’llarga *-dı* affiksining jarangsiz *-tı/-ti* variantlari qo‘shilgan: *baqtı, təkı, taptı, kesti, sattı, ketti, achtı, kechti* kabi. Jarangli undosh va unli bilan tugagan fe’llarga esa jarangli *-dı/-di* variantlari qo‘shilgan: *sabdı, tegdı, chəmdi, sındı, abıddı, chıjdı, chəjdi, qazdı, kezdi, aydı, kaldı, keldi, tamdı, səndi, endi, tug‘dı, quvdı, sevdi, aldadı, ag‘rudı, anddı, evdidi* kabi. Lekin jarangli *-z* undoshi bilan tugagan fe’llar bundan mustasno. Ikkala asarda ham bunday fe’llarga *-dı* affiksining jarangsiz *-tı/-ti* variantlari qo‘shilgan. QB *-quztı, qaztı*. MK-buztı. *Toztı, tıztı, suztı, qaztı, ıztı*. «Devonu lug‘atit turk» ning III tomida<sup>1</sup> bu tipdagi fe’llar *-z* bilan yozilgan holda, II tomida *tıttı, suttı, sıttı, qattı, ketti shaklida -t* bilan yozilgan. Mahmud Qoshg‘ariyning izohlashicha, bu fe’llarning negizi aslida *tıt-, sut-, qat-, ket- emas, balki, tız-, suz-, sız-, qaz-, kez-* shaklida bo‘lib, bularga o‘tgan zamon fe’lining affiksi *-tı/ti* qo‘shilgan, fe’l tarkibidagi *-z* assimilyatsiyaga uchrab *-t* undoshliga aylangan (*tız+tı>tıttı* kabi)».

Shu bilan birga, *-dı* affiksining jarangli va jarangsiz variantlarida ishlatilishi bo‘yicha bu asarlar o‘rtasida ayrim farqlar ham kuzatiladi. «Qutadg‘u bilig»da jarangsiz undosh bilan tugagan fe’llarga sistematik ravishda jarangsiz *-tı/ti* variantlari qo‘shilgan bo‘lsa, «Devonu lug‘atit turk»da bunday fe’llarga jarangli *-dı/di* variantlari qo‘shilishi ham uchraydi. Qiyoslang: *sokti//chəkdi, qaktı//taqdı, sachtı//qachdı, kechti//ichdi, qachısh//qochushdı, tikishti//tegishdi*.

Shunday qilib o‘tgan zamon fe’lini yasovchi *-dı* affiksining jarangli va jarangsiz variantlarida ishlatilishi bo‘yicha o‘rxun-enisey yodgorliklari bilan XI asr yodgorliklari – «Qutadg‘u bilig» va «Devonu lug‘atit turk» asarlari o‘rtasida katta farq bo‘lgan: o‘rxun-enisey yodgorliklarida bu affiksning jarangsiz *-tı/ti* variantlari asosan [l], [r], [n] sonorlari bilan tugagan fe’llarga qo‘shilib, boshqa

<sup>1</sup> Махмуд Қошғарий. Девону луғатит турк. III том, Т., 1963, 443-445 бетлар.

o‘rinlarda jarangli -ды/di variantlari qo‘shilgan bo‘lsa, “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘atit turk” asarlarida jarangsiz -ты/-ti variantlari jarangsiz undosh bilan tugagan fe‘llarga qo‘shilib boshqa o‘rinlarda asosan jarangli -ды/-di variantlari qo‘shilgan.

3. Qadimgi uyg‘ur yozuvida [d] va [t] undoshlari bir xil belgi bilan ifodalanganligi sababli uyg‘ur tiliga oid tekstlarda -ды affiksining jarangli va jarangsiz variantlarda ishlatilishi o‘rinlari va qonuniyatlarini aniqlash qiyin.

Ma‘lumki, hozirgi o‘zbek yozuvi adabiy tilida o‘tgan zamon fe‘lining bu affiksi fe‘l negizining qanday bo‘lishidan qat’iy nazar *-di* formasida yozilib, og‘zaki nutqda jarangli va jarangsiz variantlarda talaffuz qilinadi. Singarmonizm qonuni amalda bo‘lgan hozirgi turkiy tillarda bu affiks jarangli va jarangsiz variantlarda qo‘llanadi. Masalan, qozoq tilida: *-ды/-di, ты/-ti (jazды, kərди, айтты, кetti)*.

O‘tgan zamon fe‘lini yasovchi -ды affiksining etimologiyasi masalasi o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlab, ya’ni O. Betlingdan tortib hozirgi kungacha turkolog olimlar diqqatini jalb qilib kelmoqda. Bu davr ichida mazkur masala bo‘yicha har xil taxmin va farazlar aytildi. Bu haqida maxsus ishlar ham e‘lon qilindi. Ushbu masala bo‘yicha aytilgan taxmin va farazlar ko‘pchilikka ma‘lum va ular shu masalaga bag‘ishlangan adabiyotlarda batafsil analiz qilingan. Shuning uchun bu o‘rinda shu narsani eslatib o‘tish joizki, mazkur masala bo‘yicha keyinchalik izlanishlar bo‘lishiga qaramasdan hozirgacha ko‘pchilik turkologlar tomonidan e‘tirof qilingan ijobiy natijaga erishgani yo‘q. Ushbu masalaga keyingi yillarda xam tadqiqotchilarning yana murojaat qilayotgani va yangi izlanishlar davom etayotgani buning dalilidir.

-ды affiksli o‘tgan zamon fe‘lining shaxs son affikslari bilan tuslanishi. I shaxs birligi qadimgi yodgorliklar tilida ham hozirgi o‘zbek va boshqa turkiy tillardagi kabi -m affiksi bilan yasalgan: *aldы+m, bordи=m* kabi. I shaxs ko‘pligi -мыз/-miz yoki -q/-k affikslari yordamida yasalgan:

1. -мыз/-miz affiksi bilan yasalgan bardымыз tipidagi forma<sup>1</sup> XIII-XIV asrlarga oid yodgorliklarda, masalan, «Tafsir» va «Qissas ul anbiyo» va ham ancha keng iste'molda bo'lib keyingi davrlarga oid manbalarda uchramaydi. Hozir bu forma o'zbek tilining Toshkent va Qarshi shevalarida ba'zi fonetik o'zgachaliklar bilan qo'llanadi.<sup>2</sup> (Tosh: ko'rduz, ko'rduvz, Qarshi: yozduvuz, boshladuvuz), shuningdek, Sibir va Oltoydagı ko'pchilik turkiy tillar uchun ham xarakterli bo'lib, turli fonetik variantlarda ishlatiladi. Masalan: tuva, alдымыз, keldivis, ushtuvus, estuvus; olt, xakas, sho'r: bardыбыс, oynadыбыс, шыктыбыз;

2. -q/-k affiksi bilan yasalgan barduq (bardы+q), kelduk (keldi+k) tipidagi formaning yozma yodgorliklarda aks etishi XIII-XIV asrlardan boshlab kuzatiladi. Mn: «Tafsir» va «Qissasul anbiyo»da bardымыз tipidagi forma bilan bir qatorda barduq tipidagi forma ham qo'llangan. Qiyoslang: Taf-yad qылдымыз, eshitdimiz (10 b, 28 a), boshladuq, tavba qылдыq (14 a, 101 a); Rabg'-bulдымыз, eshittimiz (62b, 93 b), arza, qылдуq, yukleduk, koreduk (60 a).

Yozma yodgorliklardan ma'lum bo'lishicha, turkiy tillarning ko'pchiligida XIV asrdan boshlab faqat barduq tipidagi forma qo'llangan. Masalan; «Xisrav va Shirin», «Nahjul Farodis», «Kodeks kumanikus» kabi XIV asrga oid yodgorliklardan faqat shu forma uchraydi. Shu davr yodgorlik «Attuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya» asarining avtori ham qipchoqlarda shu forma qo'llanganligini qayd qilgan.<sup>1</sup> Hozirgi o'zbek va ko'pchilik turkiy tillarda ham asosan shu forma qo'llanadi.

II shaxs birligi turkiy tillarning ko'pchiligida -н affiksi bilan yasaladi: bardы+н, keldi+н kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida: bording, keldi+ng kabi. Ayrim turkiy tillarda, asosan, o'g'uz gruppasidagi turkiy tillarda bu affiks -n formasida ishlatiladi. Masalan; ozarbayjon, turk, gag.: bardы+n (bording), keldi+i

<sup>1</sup> Ўрхун-енисей ёдгорликларида, қадимги уйғур тилига оид текстларда ва «Девону луғатит турк» да фақат шу форма қўлланган.

<sup>2</sup> Я.Г.Гулянов. грамматика ташкентского говора, Ташкент, 1968, стр.112; А.Шерматов. Қарши шеvasининг баъзи морфологик хусусиятлари. ЎзДМ. II том, 196 бет.

<sup>1</sup> Аттухфатуз закиету филлугатит туркие (торжимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов) Т., 1968, 120-бет.



(kelding). Qarayim tilida esa –n va –y formalariga ega: aldy+i // aldy+y, keldi+n// keldi+y.<sup>2</sup>

Bu formaning XI asrda arg‘ular tilida qo‘llanganligi haqida Mahmud Qoshg‘ariy ma‘lumot bergan (bardyg‘-«bording», sen ani qachurdug‘-«sen uni qochirding»<sup>3</sup>).

- dy affiksi o‘tgan zamon fe‘lining -g‘/-g affiksi bilan yasalgan bardyg‘, keldig tipidagi II shaxs birlik formasi boshqa manbalarda qayd qilinmadi, hozirgi turkiy tillarning qaysi birida mavjudligi ham ma‘lum emas.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bu fe‘lning II shaxs ko‘pligi uchun asosan bardingiz (bardyңыз) tipidagi forma qo‘llanadi. Bu forma II shaxs birligining hurmati ma‘nosida ham qo‘llanganligi tufayli II shaxs ko‘pligi uchun bordinglar, ba‘zan bordingizlar tipidagi formalar ham ishlatiladi. Og‘zaki nutqda esa bordilaring tipidagi forma ham qo‘llanadi.<sup>1</sup>

Ma‘lumki, o‘zbek shevalarida -dy affiksli o‘tgan zamon fe‘lning II shaxs ko‘plik formalari turli fonetik variantlarda qo‘llanadi.

Bu fe‘lning III shaxs ko‘pligi eski o‘zbek tilida ham hozirgi o‘zbek va boshqa turkiy tillardagi kabi -lar/-ler ko‘plik affiksi yordamida yasalgan (bardy-lar, keldi+ler kabi).

O‘tgan zamon fe‘li -dy affiksli formasining shaxs-son affikslari bilan tuslanishi bilan bog‘liq bo‘lgan yana bir masala lab garioniesi, ya‘ni oxirgi bo‘g‘inida lab unlisi bo‘lgan fe‘llarga qo‘shilganda, -dy affiksi tarkibidagi [ы], [i] unlilarining [u], [y] unlilariga o‘tish masalasidir. Bu protsess turkiy tillarning o‘ziga xos fonetik qonuniyatlari bilan bog‘liq ravishda har xil turkiy tillarda turli darajada aks etgan.

- dy affiksli o‘tgan zamon fe‘lning ma‘nosi. Bu forma ish-harakatning aniq bo‘lganligini, yoki bo‘lmaganligini faktini ko‘rsatadi.

<sup>2</sup> К.М.Мусаев. Грамматика караийского языка. Фонетика и морфология. М., 1964, стр. 272.

<sup>3</sup> Махмуд Қошғарий. Девону луғотит турк, II том, 194-бет.

<sup>1</sup> А.Ф.Фуломов. Фель, 23-24-бетлар. А.Н.Кононов. Грамматика современного узбекского литературного языка. Стр. 215-216.

O'tgan zamon fe'lining -ды affiksli formasi barcha turkiy tillar uchun umumiy bo'lib ma'nosida ham farq yo'q. Bu formaning ko'rsatilgan ma'nosi turkiy tillarda qadimdan shakllangan bo'lib, asrlar davomida o'zgarishsiz davom etib kelmoqda.

- duq affiksi bilan yasalgan bar+duq, kel+dʸk tipidagi o'tgan zamon sifatdoshi o'rxun-enisey yodgorliklarida aktiv iste'molda bo'lib, qadimgi uyg'ur tiliga oid matnlarda, shuningdek, "Qutadg'u bilig", "Devonu lug'otit turk", "Hibatul haqoyiq", "Tafsir", "O'g'uznoma" kabi XI-XIV asrlarga oid yodgorliklarda ham qo'llangan. Bu sifatdosh ma'lum davrlarga kelib ko'pchilik turkiy tillarda iste'moldan chiqqan.

Yodgorliklar tilida -duq affiksi jarangli [d] undoshi bilan boshlangan -duq/-dʸk va jarangsiz [t] undoshi bilan boshlangan -tuq/tyk variantlarida ishlatilgan. Bu variantlarning ishlatilishida ham o'tgan zamon fe'lini yasovchi -ды affiksining jarangli -ды/di va jarangsiz -ты variantlarda ishlatilishidagi qonuniyatlar amalda bo'lgan, ya'ni-duq affiksining jarangli yoki jarangsiz variantlarda ishlatilishi ham shu affiksni qabul qilgan fe'lining xarakteriga, shuningdek, yodgorliklar tilining o'ziga xos fonetik qonuniyatlariga bog'liqdir.

Qadimgi yodgorliklar tilida -duq affiksli o'tgan zamon fe'li III shaxs formasida qo'llangan bo'lib, I va II shaxslar uchun ham III shaxs formasi ishlatilgan. Bunda shaxs-son ma'nolari kontekst mazmunidan yoki ega vazifasida kelgan so'z orqali anglashiladi.

1. Og'lym, ishisin utuzmaduq yana toquzon bosh qoñ utmysh. Og'ly yutuzы qop egirer. (Irq. bit.82).

2. Qańыma is (iñә) әr kәlti, qarluq isiñә kәlmәdүk (M. 36).

3. Өзүң тапламдуқ бәрү кәтәкин,

Маңар тushмақың ham үзүм көриәкиң (QB, 142 a).

Bu misralarning birinchi va ikkinchisida -duq formasidagi kəlməduk, utuzmaduq fe'llari III shaxs birligi ma'nosida ishlatilgan. (kəlmədүk-«kelmadi», utuzmaduq-«yutqazmadi»), uchinchi misolidagi taplamaduq fe'li II shaxs birligi

ma'nosida ishlatilgan bo'lib, bu ma'no kontekst mazmunidan va o'z y o'lishi yordamida anglashiladi.

-duq affiksli o'tgan zamon fe'lining ma'nosida quyidagi ikki holat kuzatiladi:

Birinchidan, bu forma ma'no jihatdan o'tgan zamon fe'lining -ды affiksli formasiga o'xshaydi, ya'ni ish-harakatning aniq bo'lganligini yoki bo'lmaganligi faktini ko'rsatadi: Бүкәгүкә yөtdmi. Kicha yaruq batыр әriksh sun-usдыm. Бүкәгүкдә sәkiz og'uz toquz tatar qolmaduq (MChyr. 35) Otag'qa әpkalәb, sүgә sөzlәмәдүk (MK, III, 226). Qachan kim tәgdi ersә kyn tug'ыshыng'a, boldы any tug'ar buzun үzә, qылmaduq-miz anlarg'a anda азыm өrtүk parda (Taf.7 b.) Misollardagi qalmaduq, sөzlәмәдүk, qылmaduq-miz fe'llari "qolmadi", "so'zlashmadi", "qilmadik" ma'nosida qo'llangan.

Ikkinchidan -duq affiksli forma ma'no jihatdan o'tgan zamon fe'lining -мыш affiksli formasiga yaqin turadi, ya'ni oldin bajarilgan ish-harakatning nutq momentida mavjud bo'lgan natijasini ko'rsatadi. -duq affiksli formaning bu ma'nosi asosan uning -мыш affiksli forma bilan yanma-yon qo'llanganida ko'rinadi. Qiyoslang: Yag'ы болыb itiny yaratuku umaduq yana ichikmis. (KT, 29). Ulug' әb өrtәnmish, qатына tәgi qalmaduq, bөkinә tәgi qodm (ad) uq, - tir (Irg bit, 81). Munda aytur "qылдыm" teb, valekin qылmaduq turur (Taf. 130 a).

Bu misollarda -мыш affiksli ichikmis, өrtәnmish, qayмыш fe'llari bilan -duq affiksli yaratunu umaduq, qalmaduq, qod(ma) duq, qaymaduq, klmaduq turur fe'llari bir xil ma'noda qo'llangan bo'lib, -duq affiksli fe'llar o'rnida -mish affiksli fe'llar yoki aksincha, -мыш affiksli fe'llar o'rnida -duq affiksli fe'llar qo'llansa, ma'noda o'zgarish bo'lmaydi.

Ba'zi adabiyotlarda hozirgi yaqut tilida taxmin, gumon ma'nosidagi o'tgan zamon fe'lini yasovchi-tax, -tag' (-dax) affiksi ana shu -duq affiksining fonetik varianti ekanligi ta'kidlanadi. Hozirgi xapas tilidagi o'tgan zamon fe'lini yasovchi -chых/-chix va hozirgi qirg'iz tilidagi -chu/-chү affikslarining tarixi ham -duq affiksi bilan bog'liq ekanligi adabiyotlarda qayd qilinadi. N.A.Baskakovning keyingi yillarda e'lon qilingan bir ishida bu gruppaga hozirgi tuva tilidagi, o'tgan

zamon fe'lini yasovchi -chын/chik/-chuk/-chүк,/-жык/-jik,-jun/-jүк affiksi ham qo'shilgan.-duq affiksining tarkibi, etimologiyasi haqida ba'zi mulohazalar aytilgan.<sup>1</sup>Masalan: A.Kazei-Bek bu affiks o'tgan zamon fe'lining -ды/-di affiksiga xoslik, egalik kabi ma'nolarni ifodalovchi -g'ы/-gi affiksi qo'shilishi asosida shakllangan bo'lsa kerak, degan fikrni aytgan.

Ma'lumki, turkologik adabiyotlarda o'tgan zamon fe'lining -ды affiksi sifatida yasovchi -duq (-дық) affiksidan rivojlangan, degan fikr ham aytilgan. Lekin boshqa masala bo'lib, uning I shaxs ko'plik formasiga aloqasi yo'q.

O'tgan zamon fe'li -ды affiksining etimologiyasi haqida fikr yuritilgan ishlarda I shaxs ko'plik ko'rsatkichi -q(-k) to'g'risida ham ma'lum mulohazalar aytilgan. Bu ishlarda o'tgan zamon fe'lining I shaxs ko'plik formasini yasovchi -q affiksi tarixini, G.I.Raistedt tushuntirganidek, sifatdoshning -duq affiksi tarkibidagi [k] undoshiga emas balki boshqa manbaga bog'lanadi.<sup>2</sup>

Bu affiks yozma yodgorliklarda -мыш/-mish, -mush/-mysh va -мыс/-mis formalarida qo'llangan. Bulardan birinchisi [-мыш/-mish] asosiy bo'lib, ikkinchi [-mush/-mysh] va uchinchi [-мыс/-mis] ayrim manbalardagina uchraydi. -мыш affiksining turli formalarda ishlatilishi bo'yicha yozma yodgorliklar o'rtasida farqlar mavjud bo'lib, bunday farqlar, hatto, bir gruppaga mansub bo'lgan manbalar o'rtasida ham kuzatiladi. Masalan: "Kul tegin" yodnomasida bu affiks -мыш/-mish va -мыс/-mish, formasida, parallel ishlatilgan bo'lib, "To'nyuquq" yodnomasida -мыс/-mis formasida, Enisey yozuvlarida esa ko'pincha -мыс/-mis, ba'zan -мыш/-mish formasida ishlatilgan.

XI-XII asrlarga oid yodgorliklar – «Qutadg'u bilig», «Devonu lug'otit turk» va «Hibatul haqoyiq» asarlarida faqat -мыш/-mish formasi ishlatilgan. Mahmud Qoshg'ariy ham faqat shu formani ko'rsatgan.<sup>1</sup>

O'zbek tilida -мыш affiksli o'tgan zamon fe'li keyingi davrlargacha qo'llanilib kelgan. Bu forma o'zbek milliy adabiy tilining shakllanish arafasida,

<sup>1</sup> Бу масалага доир адабиётлар рйўхати А.Н.Кононовнинг «Гармматика современного узбекского литературного языка» (124-бет, 138) китобида берилган.

<sup>2</sup> Қаранг: А.Н.Кононов. Происхождение прошедшего категорического времени в тюркских языках. Стр.114-115, 118-119.

<sup>1</sup> Махмуд Қоғарий. Девону луғотит турк. II том, 62-бет.

ya'ni 1920-30 yillarda ham turli janrlarga oid asarlarda iste'molda bo'lgan. Umidli bog'lamish sizga, sevuklim, mehribonim (Arm.11) Yuragim bugun ko'rsam sevinchlarga to'lmishdir (Ya.yo'1.8). Eng to'g'ri yo'l ko'rsatgani uchun hozirgi qiymatini yo'qotmamishdir. (Arm.7-8). Bugun o'n ikki kun, Hasanali ota Toshkent ketmishdir, shundan beri undan darak bo'lmadi. (A.Q.98.)

Yozma yodgorliklarning ko'rsatishicha, o'zbek va boshqa ko'pchilik turkiy tillarda –мыш affiksli formaning qo'llanishi asta-sekin passivlasha borgan va natijada o'tgan zamon fe'li formasi sifatida iste'moldan chiqqan.<sup>2</sup> Hozir bu tillarda –мыш affiksi turmish, o'tmish, kechmish kabi bir qator so'zlar tarkibida saqlangan bo'lib, bu so'zlar o'zining fe'llik xususiyatini yo'qotgan va ot turkumiga o'tgan. Shu bilan birga, bu tillarda –мыш affiksining emoq to'liqsiz fe'li bilan emish har xil fe'l formalariga yoki kesim funksiyasida kelgan ot hamda ot turkumidagi so'zlarga qo'shib keladi va turli ma'no ottenalarini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: o'zbek tilida emish o'zi qo'shib kelgan so'zga eshitilganlik, gumon, ishonchsizlik, noaniqlik kabi ma'no ottenkalarini beradi. Masalan: kelgan emish, kelibdi emish, kelar emish kabi.

Hozirgi o'zbek va boshqa ko'pchilik turkiy tillarda –мыш affiksli forma o'rnida shu forma bilan semantik va funktsional mos keluvchi –gan affiksli forma qo'llanadi. –мыш affiksli o'tgan zamon fe'lining shaxs-son affikslari bilan tuslanishi. Bu fe'lning tuslanishi bo'yicha qadimgi yodgorliklar tili bilan eski o'zbek tili va boshqa turkiy tillar o'rtasida ba'zi juz'iy farqlar kuzatiladi.

Qadimgi uyg'ur tiliga oid matnlarda bu fe'lning shaxs-son affikslari bilan tuslanishi quyidagicha ko'rinishda bo'lgan:

I shaxs birligi uchun -mən yoki –m qo'shilgan: Ichqынмышән kənchimin.  
(Olt. 179) Үылан уылқы qalachqa əlchigə bərmishmi (Uyg'. Shpr. 38)

I shaxs ko'pligi uchun-biz qo'shilgan: Biz...isig əzүmyzкə ətөzүmyzкə әrtingү shinmish, уар шынмыш –biz (Olt.174).

<sup>2</sup> Ҳозир –мыш аффиксли ўтган замон фе'лининг шеърий асарларда ва тарихий мавзуда ёзилган асарлардаги персонажлар тилида ишлатилиши учрайди. Лекин бу форма ҳозирги ўзбек адабий тили нормасига кирмайди, ўзбек шеваларида ҳам ишлатилмайди.

II shaxs ko‘pligi – siz yordamida yasalgan: bitig itmish –siz (Uig‘. Shpr 9.)

III shaxs ko‘plik formasi uchun –lar/-lär qo‘shilgan: Adыnta anchaolayu kältislär (Uyg‘.III. 35).

-мыш affiksli o‘tgan zamon fe‘lining shaxs-son affikslari bilan tuslanishi bo‘yicha hozirgi turk, ozarbayjon tillari ham o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi.<sup>1</sup>

-мыш affiksli o‘tgan zamon fe‘li bo‘lishsiz formasining yasalishida ham yodgorliklar o‘rtasida ba’zi juz’iy farqlar kuzatiladi.

O‘rxun-enisey yodgorliklarida, shuningdek, “Devonu lug‘otit turk” va “Hibatul haqoyiq” asarlarida bu fe‘l bo‘lishsiz aspektida ishlatilmagan. Mahmud Qashg‘ariy ham ko‘pchilik fe‘l formalarining bo‘lishsiz aspekti yasalishi haqida ma’lumot bergani holda, -мыш affiksli formaning bo‘lishsiz aspekti to‘g‘risida hech narsa aytmagan. Demak, o‘zbek tilida –мыш affiksli o‘tgan zamon fe‘lining bo‘limsiz formada ishlatilishi XV asrga qadar xarakterli bo‘lib, keyingi davrlarda ancha chegaralangan. Yozma yodgorliklarning ko‘rsatilishicha o‘zbek tilida XV asrdan boshlab -мыш affiksli fe‘l bilan semantik va funktsional mos keluvchi -gan affiksli fe‘lning qo‘llanishi aktivlasha borgan bo‘lib -мыш affiksli fe‘lning bo‘lishsiz formalari o‘rnida ham asosan, mana shu -gan affiksli fe‘lning bo‘lishsiz formalari qo‘llana boshlagan.

## 1.2. O‘tgan zamon siftdosh shakllarining ma’nolari va taraqqiyoti

- *мыш* affiksli o‘tgan zamon fe‘li formasining ma’nosi. Bu forma ham o‘tgan zamon fe‘lining –*ды* affiksli formasi kabi ish-harakatning nutq momentiga qadar aniq bo‘lganligini bildiradi. Shu bilan birga –*мыш* affiksli forma –*ды* affiksli formada farq qilib, ish-harakatning o‘zini emas, balki uning nutq

<sup>1</sup> В.Чарыяров. Времена глагола в тюркских языках юго-западной группы. Стр.55-56.

momentida mavjud bo'lgan natijasini ko'rsatadi. *Qachon Zulayxo erlikiḡa kirdi ersə, Zulayxanı kərđi: bezənmish, yinchkə, yufqa tonlar kizmiş.* (Rabg'. 53 a)

- *g'an* affiksli sifatdoshning yozma manbalarda aks etishi, xususan, uning o'tgan zamon fe'li ma'nosida qo'llanishi nisbatan keyingi davrlardan boshlab kuzatiladi. Bu sifatdosh o'rxun-enisey yodgorliklarida uchramaydi, qadimgi uyg'ur tiliga oid tekstlarda esa *-g'an* affiksi *-er* to'liqsiz fe'ligagina qo'shilgan (*ər+kən*).<sup>1</sup> XI asr yodgorliklari «Qutadg'u bilig» va «Devonu lug'otit turk» asarlarida bu sifatdosh ancha keng iste'molda bo'lib, keyingi davrlarda uning qo'llanishi yana aktivlasha borgan. Lekin XI asr yodgorliklarida bu sifatdoshning o'tgan zamon fe'li funksiyasida qo'llanishi unchalik xarakterli bo'lmagan.

*-g'an* affiksining tarkibi va etimologiyasi haqida ba'zi mulohazalar aytilgan. Masalan: G.I.Raisted bu affiksni quyidagicha ikki qismga ajratadi: *-da+p(-g'a+n)*. Uning ko'rsatishicha, *-gan* affiksi tarkibidagi *-n* formanti qadimgi sifatdosh ko'rsatkichi bo'lib, *-g'a* formanti fe'ldan fe'l yasovchi affiksdur. Turkiy tillarda keyinchalik *-gan* affiksli sifatdosh *-n* affiksli sifatdoshni siqib chiqara boshlagan. G.I.Raisted hozirgi chuvash tilida *-n* (*-yn/-yon*) va *-na/-nyo* affikslari bilan sifatdosh yasaliş faktiga asoslanib shunday xulosaga kelgan.<sup>2</sup> N.A.Baskakov ham *-gan* affiksini shu xilda ikki qismga ajratadi (*-g'a+n*). Lekin N.A.Baskakov bu affiks tarkibidagi *-n* formanti ish-harakatning tugalligi fakti ma'nosini ifodalovchi affiksdur,<sup>3</sup> degan fikrni aytadi. V.Bang *-gan* affiksini *-(ɨ)g'+an* tarzida qismlarga ajratgan.<sup>4</sup>

V.Kotvich turkiy tillardagi o'tgan zamon sifatdoshini yasovchi *-dap* (*-qan/-g'an*) affiksini tarkibiy qismlarga ajratmaydigan bir butun affiksi sifatida qarab, manchjur tilidagi o'tgan zamon sifatdoshini yasovchi *-da-do~-ke//-xa~-xo~-xe*

<sup>1</sup> М.В.Насилов. Древнеуйгурский язык. Стр.82.Э.Р.Тенишев. грамматический очерк древнеуйгурского языка по сочинению «Золотой блеск», АКД, Л. 1953. Стр.14. Э.Фозимов. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси, Т., 1965. 115-бет.

<sup>2</sup> Г.И.Раистед. Введение в алтайское языкознание. Стр.134.

<sup>3</sup> Н.А.Баскаков. Каракалпакский язык. стр. 456-457.

<sup>4</sup> Каранг: А.Н.конов. грамматика современного узбекского литературного языка. Стр. 217.

affiksi ana shu –dan affiksidan oxirgi [p] undoshning qolishi natijasida vujudga kelgan, degan fikrni aytadi.<sup>5</sup>

Mavjud faktlarning ko‘rsatishicha, o‘tgan zamon sifatdosh formasini yasovchi –gan affiksining -g‘a+n tarzida mustaqil affiksning qo‘shiluvidan tashkil topganligi haqiqatga mos keladi. Bu affiksning tarkibidagi -g‘a formanti “umumzamon” ma’nosidagi sifatdosh yasovchi affiksdur.

Turkiy tillar tarixida “umumzamon” ma’nosini ifodalovchi bilgə (>bil+gə) tipidagi -gə (-ga) affiksini sifatdosh formasining mavjudligi, -g‘an affiksli sifatdoshning dastlab “umumzamon” ma’nosida qo‘llangani va uning bu xususiyati hozirgi o‘g‘uz gruppasidagi turkiy tillarda saqlangani kabi faktlar bu fikrni tasdiqlaydi, –g‘an affiksi tarkibidagi –n formanti esa etimologik jihatdan fe’lning o‘zlik daraja formasini yasovchi –n affiksi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

-gan affiksli o‘tgan zamon fe’lining ma’nosi. Bu fe’l ma’no jihatdan -мыш affiksli o‘tgan zamon fe’li bilan bir gruppaga kiradi, ya’ni -gan affiksli o‘tgan zamon fe’li ham oldin bajarilgan ish-harakatning nutq momentida mavjud bo‘lgan natijasini ko‘rsatadi: *Haqiqatda iziniñ azabı kelgən erur. Qazg‘urmag‘ıl, ulg‘ayib bolg‘an turur* (Rabg‘ 64 a). -g‘an affiksli o‘tgan zamon fe’liga dur/dyr qo‘shilganda (-gan+dur), *taxmin, guman, koaniqlik, shubxa* kabi ma’nolar ifodalanishi XIX asrdan boshlab ayrim prozaik asarlarda kuzatiladi. *Men bu shaharg‘a kelgən vaqtda öz ahvalımdın siz hurmatlikka bir xat yazıb erdim, barıyb ma’lum bolg‘andur* (Furq. II. 151). Bu misoldagi ma’lum bolg‘andur fe’li ifodalangan ish-harakatning bo‘lgani yoki bo‘lmagani so‘zlovchiga aniq emas, ya’ni bu fe’l «ma’lum bo‘lgan bo‘lsa kerak» ma’nosida qo‘llangan.

-g‘an+dur formasidagi fe’lning bunday qo‘llanishi o‘zbek tili taraqqiyotining keyingi davrlari uchun xarakterli bo‘lib, 1920-30-yillarga oid asarlar tilida ham bu hol kam kuzatiladi. Qiyoslang: *Bu masalalar to‘g‘risida o‘qush kitoblarida judayam oz yozilg‘andir. Ma’lumki sinfiy dushman yashirilgan,*

<sup>5</sup> В.Котвич. Исследование по алтайский языком. Стр.289.



*lekin butunlay jonsizlanmagandir. Uning birligini, tutqan yo'lini buzushqa qaratilgandir.*

Misollar 1920-30 yillarga oid asarlardan keltirilgan bo'lib, ko'rinib turibdiki, bularda -g'an+dir (<-g'an+dur) formasidagi fe'llarning birontasi ham taxmin, gumon, noaniqlik yoki shubha ma'nosini ifodalamaydi. Bu manbalarda -gan+dir (<-g'an+dur) formasidagi fe'llarni bunday ma'nolarda qo'llanishi ayrim hollardagina uchraydi.

1920-30-yillarda -g'an+dir (<g'an+dur) formasidagi fe'llarning taxmin, gumon, noaniqlik, shubxa kabi ma'nolarda qo'llanishi, aftidan og'zaki nutq uchun xarakterli bo'lib, yozuv adabiy tilda kam o'rin olganga o'xshamaydi.

## II BOB. HOZIRGI ZAMON VA KELASI ZAMON FE'L SHAKLLARINING TARAQQIYOTI

### 2.1. a / -ə (y) affiksli ravishdosh asosida yasalgan hozirgi zamon fe'li

Ma'lumki hozirgi o'zbek tilida ham boshqa turkiy tillardagi kabi aniqlik maylining hozirgi zamon ma'nosini ifodalovchi maxsus formalar mavjud. Bular – (a) *yap*, *-(a)yotib*, *-(a)yotir*, *-moqda* affikslari bilan yasalgan ishlayapman, ishlayotirman, ishlamoqdaman tipidagi sintetik formalar va *turmoq*, *yotmoq*, *o'tirmoq yurmoq* holat fe'llari ishtirokida hosil bo'lgan *ishlab+turibman* (*yotib//o'tiribman//yuribman*) tipidagi tasviriy formalar bo'lib, bu formalar adabiyotlarda har xil nomlar bilan ataladi va bularning ma'no va ottenkalariga ko'ra o'zaro munosabati turlicha talqin qilinadi.

Masalan, *-moqda* affiksli *ishlamoqdaman* tipidagi formani A. N. Kononov hozirgi zamon fe'lining boshqa formalaridan farqlab, “*настоящее длител'ное время*” (“hozirgi zamon davom fe'li”) nomi bilan ataydi va uni maxsus gruppaga ajratadi.<sup>8</sup>

Boshqa formalarni esa “*настоящее конкретное время*” nomi bilan bir gruppaga birlashtiradi.<sup>9</sup> V. V. Reshetov ham bu formani “*длител'ное настоящее время*” nomi bilan alohida gruppaga ajratib, uni “*характерные имена*”) formalari gruppasiga qo'shadi va bu forma *-man*, *-san*, *-miz*, *-siz*, *-lar* tipidagi shaxs-son affikslarini qabul qilib, ish-harakatning nutq momentida davom etib turgan protsessi yoki holatini ifodalaydi (“*выражает относительно длител'ный процесс или состояние действия, происходящий в момент речи*”), deb izohlaydi.<sup>10</sup> V. V. Reshetov hozirgi zamon fe'lining boshqa formalarini “*формы прогрессива (настоящего времени данного момента)*” nomi bilan bir gruppaga birlashtiradi.<sup>11</sup> A. A. G'ulomov *-moqda* affiksli formani alohida gruppaga

<sup>8</sup> A. N. K o n o n o v . Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazyka, M,—L., 1960, str. 214.

<sup>9</sup> O'sha asar, 211—214-betlar.

<sup>10</sup> V. V. R e s h e t o v . Основы фонетики и грамматики узбекского языка, Tashkent, 1965, str. 133, 201.

<sup>11</sup> O'sha asar, 135—141-betlar.

ajratmasa ham unga ish-harakatning davomiylik ma'nosini ifodalovchi forma sifatida qaraydi, "lekin bu aslida fe'l formasi bo'lmay, ot formasidir", degan izohni beradi va bu formani *-(i)sh(+da)* affiksli harakat nomi (*ishlash + da*) formasi bilan tenglashtiradi.<sup>12</sup> S. Usmonov esa *-moqda* affiksli formanigina emas, balki *-(a)yap*, *-(a)yotib* va *-(a)yotir* affiksli formalarni, shuningdek, *ishlab+turibman* (*yotibman // o'tiribman //yuribman*) tipidagi tasviriy formalarni ham "hozirgi zamon davom fe'li" nomi bilan bir gruppaga birlashtiradi. A. Hojiev bu formalarni "aniq hozirgi zamon fe'li" nomi bilan bir gruppaga birlashtirib, bularning har biri ish-harakatning davomiyligini ifodalay oladi, shuning uchun *-moqda* affiksli formani hozirgi zamon davom fe'li sifatida alohida gruppaga ajratish to'g'ri bo'lmaydi, keyingisining xarakterli xususiyati "obrazlilik" ottenkasini ifodalashdir, degan fikrni aytadi.<sup>13</sup> Ma'lumki, hozirgi o'zbek tilida ham boshqa turkiy tillardagi kabi aniqlik maylining hozirgi zamon ma'nosini ifodalovchi maxsus formalar mavjud. Bular *-(a)yap*, *-(a)yotib*, *-a(yotir)*, *-moqda* affikslari bilan yasalgan *ishlayapman*, *ishlayotibman*, *ishlayotirman*, *ishlamoqdaman* tipidagi sintetik formalar va *turmoq*, *yotmoq*, *o'tirmoq*, *yurmoq* holat fe'llari ishtirokida hosil bo'lgan *ishlab+turibman* (*yotibman//o'tiribman//yuribman*) tipidagi tasviriy formalar bo'lib, bu formalar adabiyotlarda har xil nomlar bilan ataladi va bularning ma'no va ottenkalariga ko'ra o'zaro munosabati masalasi turlicha talqin qilinadi. U. Tursunov va J. Muxtorovlar ham hozirgi zamon fe'li formalariga shunday qaraydilar va bularni "aniq hozirgi zamon formalari" nomi bilan ataydilar.<sup>14</sup>

Hozirgi o'zbek tilidagi hozirgi zamon fe'li formalari bo'yicha adabiyotlarda shularga o'xshash yana bir qator har xilliklar kuzatiladi. Yozma yodgorliklarning ko'rsatishicha, eski o'zbek adabiy tilida aniqlik maylining hozirgi zamon ma'nosini ifodalash uchun *-a/-ə(-y)* affiksli ravishdosh asosida yasalgan *ala turur men*, *aladur-men*, *ala-men* tipidagi formalar, shuningdek, *-r(-mas)* affiksli *alur-men* (*almas-men*) tipidagi hozirgi-kelasi zamon fe'li qo'llangan. Shu bilan birga,

<sup>12</sup> G. G'ulomov. Fe'l, Toshkent, 1954, 32, 86-betlar.

<sup>13</sup> A. H. Sulaymanov, A. H. Hojiev, J. Jo'raev. Fe'l zamonlari. Toshkent, 1962. 90-bet.

ayrim yodgorliklarda *tur-*, *yat-*, *yur-*, *oltur-* holat fe'llari ishtirokida hosil bo'lgan tasviriy formalar va ba'zi manbalarda *-maqda /-mekde* affiksli forma ham kuzatiladi. *-(a)yap*, *-(a)yotib* va *-(a)yotir* affiksli formalarning qo'llanishi esa asosan XX asr boshlaridan kuzatiladi.

Hozirgi zamon fe'lining bu turi eski o'zbek tilida quyidagicha uch xil formada qo'llangan:

1. *-a/-ə (-y) +turur+men* (ravishdoshning *-a/-ə[-y]* affiksli formasi+ *turur* [*tur-* holat fe'lining hozirgi-kelasi zamon formasi]+shaxs-son affiksi): *al + a turur men, kel + ə turur men, bashla + y turur men* kabi;
2. *-a/-ə(-y) +dur + men* (ravishdoshning *-a/-ə[-y]* affiksli: formasi+ *dur* [*turur* fe'lining qisqargan formasi]+ shaxs-son affiksi):*al + a + dur+men, kel + ə + dur+men, bashla + y + dur + men* kabi;
3. *-a/-ə(-y)+men* (ravishdoshning *-a/-ə[-y]* affiksli formasi+shaxs-son affiksi):  
*al+ a+men, kel+ə + men, boshla +y +men* kabi.

Bu formalarni keyingi o'rinlarda shartli ravishda *ala + turur + men, aladur + men, ala+men* tipidagi formalar deb ataymiz.

**1. Ala+turur+men tipidagi forma.** Yozma yodgorliklarning ko'rsatishicha, *ala + turur+men* tipidagi forma turkiy tillar, shu jumladan, o'zbek tili taraqqiyotining ma'lum davrlarida iste'molda bo'lgan. Bu forma "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Hibat ul haqoyiq", "Tafsir", "O'g'uznoma", "Qisas ul-anbiyo", "Guliston", "Nahjul farodis" kabi XI—XIV asrlarga oid yodgorliklarda va qadimgi uyg'ur tiliga oid manbalarda, shuningdek, XVII asrga mansub bo'lgan "Shajarai tarokima" va "Shajarai turk" asarlarida qo'llangan bo'lib, XV—XVI asrlarga oid ayrim manbalarda (asosan she'riy asarlarda) ham uchraydi. Qadimgi uyg'ur tiliga oid manbalarda, shuningdek, "Tafsir" da va "Qisas ul-anbiyo" ning qadimgi qo'lyozma nusxalarida bu formaning yasalishida asosiy fe'l ko'pincha *-u/-y(-yu/-yu)* affiksli ravishdosh formasida kelgan.

Masalan: *yıraqтын көзүну turur* (Uyg. II, 22), *yana-ək yalınayu turur*, *qashы qaraqn көзүну turur* (TT, X, 26, 30), *ətəklerin adыrtlayu tururlar* (Olt. yor, 156), *yad alu turur, saqlanu turur, azab kыlu turur* (Taf., 546, .1076, 136a),

*sözləyy turur, namaz qılı turur* (Rabg‘., 7a, 106).

“Qutadg‘u bilig”da bu formaning faqat shu varianti qayd qilindi: *oq‘yu turur, kørny turur* (QB, 1306, 172a). “O‘g‘uznoma” da esa bu formaning yasalishida unli bilan tugagan fe‘llar *-ya/-ye* affiksli ravishdosh formasida kelgan: *Kök təhri yığ‘laya turur* (O‘N, 28).

XIV asrga oid manbalardan “Guliston”da va “Qisas ul-anbiyo” ning keyingi davrlarda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalarida *ala+ + turur + men* formasi tarkibidagi *turur* holat fe‘li [d] jarangli undosh bilan *durur* formasida ham qo‘llangan. Masalan, *əzi sözləy durur* (Rabg‘., T, 20. Qiyoslang: *sözləyy turur* — Rabg‘., 7a), *uchmahqa kirər vaqt bolmay durur* (Rabg‘., T, 49), *tuta dururlar kelə durur* (Saroyi, 256, 139a). XV—XVI asrlarga oid she‘riy asarlarda bu formaning asosan shu varianti uchraydi. Masalan: *kəzým darya bolmay durur* (Lutf., 191a), *qılmay durur gunah* (Otoyi, 56a), *oynay durur* (Nav. G‘S, 62a), *almay durur* (Nav. FQ 140a), *hech kishi kərmey durur* (Bobir, 35).

Hozirgi zamon fe‘lining *ala+turur+men* tipidagi formasiga shaxs-son affikslarining to‘la variantlari qo‘shilgan. III shaxs birligi no‘l ko‘rsatkichli bo‘lib, III shaxs ko‘pligi uchun *-lar* affiksi qo‘shilgan. Bu formaning shaxs-son affikslari bilan qo‘llanishi “Qisas ul-anbiyo”, “Nahjul farodis”, “Shajarai tarokima” va “Shajarai turk” asarlarida qayd qilindi. Masalan: Rabg‘. *tiləyy turur men* (11a), *istəyy tururlar* (11a); Rabg‘. T — *ahdnı buza turur siz* (814), *kelyrə tururlar* (170); NF — *za‘if bolu turur sen* (181 a), *bara turur siz* (25a), *kylyshy tururlar* (7a); Sh. tar.— *men qayta turur men* (47), *rast ayta turur sen* (22), *piyada kelə turur miz* (22), *amal qıla tururlar* (56); Sh. turk. — *qorqa turur men* (17), *ne qıla turur sen?* (5), *shundaq hayal qıla turur miz* (175), *iztirab tarta turur siz* (111), *sözləshə tururlar* (44). Boshqa manbalarda bu forma ko‘pincha III shaxs birligida, ba‘zan III shaxs ko‘pligida qo‘llangan.

*Ala + turur+men* tipidagi forma hozirgi o‘zbek va boshqa turkiy tillarda qo‘llanmaydi. Ozarbayjon shevalarining ayrimlarida uning *ala durur* tipidagi

varianti qayd qilingan.<sup>15</sup>

*Ala + turur + men* tipidagi forma yodgorliklar tilida quyidagi ma'nolarda qo'llanilgan:

1. XIV asrga qadar asosan hozirgi zamon ma'nosida qo'llangan:

*Ətil suvı aqa turur,*

*Qaya tubi qaqa turur* (MK, I, 103).

*Bidadын уыг'ыqlы kishi qalмады,*

*Аның kundə arta turur bu bida* (HH, 156).

*Ul kun Abu Bakir assiddiq Razilallah anhu otib barur erdi, un eshitildi zarzar Umayya evində. Sordı: "Bu ne un turur?" Ayttylar: "Umayya qulı Bilalg'aazab qyly turur"* (Taf., 136a). *Ul halda xitab keldi: «Ey Iblis, tamug'lug'lar seni istəyy tururlar» Iblis ayg'ay: "Men ham ularny tiləyy turu men"* (Rabg'., 11a).

Keltirilgan misollarda *-a/-ə(-y) + turur* formasidagi fe'llar nutq momentida bajarilayotgan yoki davom etib turgan ish-harakatni ifodalab, hozirgi o'zbek tilidagi *-(a)yap*, *-(a)yotir* yoki *-moqda* affiksli hozirgi zamon fe'li formalariga mos keladi (Qiyoslang: *aqa turur* — "oqmoqda", *azab qyly turur* — "azob beryapti" va hokazo).

Bundan tashqari, bu forma shu davrga oid manbalarning ayrimlarida bajarilishi nutq momenta bilan chegaralanmagan "umumzamon" xarakteridagi ish-harakatni ifodalashda ham qo'llangan:

*Tiriglik beryr, kər, taqy yər nəñiñ,*

*Oqyuy turur kynde təktə əñiñ* (QB, 1306).

*Oshul qyz andag' kərgygluk erdi, kulsə, kək təñri kyləturur; yyg'lasa, kək təñri yyg'laya turur.* (UN, 28). *Amma erdəm bir chashma durur kim, dayim suvi tashyb kelə durur.* ( Saroyi, 43 a). Bu misollarda *oqyishu turur*, *kule turur*, *yyg'laya turur*, *kelə durur* fe'llari ma'nosiga ko'ra hozirgi o'zbek tilidagi *olaman*

<sup>15</sup> R. Ə. Rustamov. Guba dialekti, Bakı. 1961. səx 148.

tipidagi hozirgi-kelasi zamon fe'liga mos keladi (*oqyuu turur* — «da'vat etadi», *kulə turur* — «kuladi», *yig'laya turur* — «yig'laydi», *kelə durur* — «keladi»).

2. XV—XVI asrlarga oid she'riy asarlarda bu forma hozirgi zamon, «umumzamon» kabi ma'nolarda qo'llangan:

*G'am yūki qylmay durur yalg'ыз meni – Mahzunny kaj*

*Ham bu yūk qylmysh erdi Farhad ilə Majnunny kaj.*

(Nav. G'S. 43 a)

*Ah, yashymdyn artar za'f, ey tabib,*

*Bildim, yarashmas emdi bu ab-u hava meңə.*

(Bobur, 9).

*Sharbati ichməy turur sahib nazarlar jamyndyn,*

*Kim ke xoblar dardyg'a daru-vu darman arzular.*

(Atoiy, 16 a).

*Ah, agar bolsa gunah. xoblarny sevmək aqbida,*

*Dunyada qylmay durur hech kimsə mendin kəp gunah.*

(Atoiy. 56a)

Misollarning oldingi ikkitasida *-a/-e(-y) + turur* formasidagi fe'llar hozirgi zamon ma'nosida (*q'lmay durur kaj* — «egmayapti», «bukmayapti», *arta durur* — «ortmoqda»), keyingi ikkitasida «umumzamon» ma'nosida qo'llangan (*ichməy durur*— «ichmaydi», *qylmaydurur gunah* – «gunoh qilmaydi»).

3. *Ala + turur+men* tipidagi forma XVII asr yodgorliklarida — «Shajarai tarokima» va «Shajarai turk» asarlarida nisbatan aktiv qo'llangan bo'lib, ma'nosi ham ancha keng bo'lgan.<sup>16</sup>

a) hozirgi zamon ma'nosida qo'llangan: *Kim bolur-sen va kaydyn kelə turursen?* (Sh. tar. 76). *Tunav kun Muhammad Quli begdin ruxsat tilədim. «Bar»,— dedilər. Аның үчун soray turur men* (Sh. turk. 170-171);

<sup>16</sup> Shuning uchun ham A. N. Kononov va S. N. Ivanov ushbu asarlar tili uchun bu formani «nostoyashее-budуще время» nomi bilan ataganlar (A. N. Kononov. Rodoslovnaya turkmen. Sochinenie Abu-l-Gazi xana xivinskogo. M. 1958. S. 144.

b) odatdagi, doim yoki vaqti-vaqti bilan takrorlanib turuvchi ish-harakati ifodalaydi: *Bu ashniñ atı «bug‘raxaniy» bolsin tedi. Bu kun xalq ichinde «bug‘ra» teb pishirə tururlar- ul ash turur.* (Sh. tar., 51).

v) kelasi zamon ma’nosida qo‘llangan: *Tez og‘uz eliniñ ichinde urush bolub, qızıyl qon qara suv-tekaqa turur, Ali xan tez ələ turur, anıñ ornıyg‘a bir kishi padshah bola turur* (Sh. tar., 60). *Yaxshısı ul turur kim, men yetti mıñ mog‘il birlən bara turur men* (Sh. turk, 71).

Demak, tarixiy taraqqiyot protsessida *ala + turur+men* tipidagi formaning ma’nosi kengaya borgan. Ya’ni bu forma dastlab hozirgi zamon fe’li sifatida shakllangan bo‘lib, keyinchalik odatdagi, takrorlanib turadigan ish-harakatni ko‘rsatuvchi «umumzamon» ma’nosida, so‘ng kelasi zamon ma’nosida ham qo‘llangan. Lekin keyingi davrlarda ham uning asosiy funksiyasi hozirgi zamon ma’nosini ifodalashdan iborat bo‘lgan.

**2. Aladur+men tipidagi forma.** *Aladur+men* tipidagi formaning yozma yodgorliklarda aks etishi XIV asrdan boshlab kuzatiladi. Masalan, bu forma qipchoq tillariga mansub bo‘lgan XIV asr yodgorligi «Kodeks kumanikus»da iste’molida bo‘lgan, «Attuhfatuz zakiyatu fillug‘atit turkiya» asarida ham bu formaning shu davr qipchoqlari tilida qo‘llangan haqida ma’lumot berilgan, shuningdek, ozarbayjon tilining XIV—XV asrlarga oid yozma yodgorliklarida iste’molida bo‘lgani ham qayd qilingan.<sup>17</sup>

Yozma yodgorliklarning ko‘rsatishicha, o‘zbek tilida bu formaning aktiv qo‘llanishi XV asrdan boshlangan va XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga qadar hozirgi zamon ma’nosini ifodalovchi asosiy vositalardan biri sifatida qo‘llanib kelgan.

Eski o‘zbek tilida fe’l negizining qanday bo‘lishidan qat’iy nazar bu forma tarkibidagi affiks vazifasini bajaruvchi holat fe’li faqat [u], [y] unlilari bilan *-dyp/-dyp* formalarida kelgan (*ala + dur, kelə + dur* kabi). Boshqa turkiy tillarga oid

<sup>17</sup> M. Sh. Ragimov. *Formy vyrajeniya nastoyashogo i budeshogo vremen v pis’mennых ramyatnikax azerbaydjanskogo yazyka XV-XVIII vv.* «Yazykovedcheskiy sbornik». Baku. 1957, s. 214.



manbalarda esa lab garmoniyasi talabi bilan bog'liq bo'lmagan holda [ɣ], [i] unililari bilan *-bɣp/-dup* formalarida ham qo'shilgan. Qiyoslang: *It ɣrədur, it ug'rayadɣur, qou taŋraydɣur, siir tuŋraydɣur, y'lqɣ kishnəydir, tauq chakaradɣur, bəru uluydɣur, kishi ɣnchqaydɣur* (Kod. kum., 79). Ozarb: *chɣxadɣur, axadɣur, soyadɣurlar, chan verədur, vlədur, yazadurlar*.<sup>18</sup>

Eski o'zbek tilida *-a/-ə(-y)+dur* affiksli hozirgi zamon fe'liga shaxs-son affikslarining to'la formalari qo'shilgan: *aladur-men, aladur-sen, aladur-miz (aladur-biz), aladur-siz; kelədur-men, kelədur-sen, kelədur-miz (kelədur-biz), kelədur-siz* kabi. III shaxs birligi nul' ko'rsatkichli bo'lib, III shaxs ko'pligi uchun *-lar./-lər* affiksi qo'shilgan: *aladur, kelədur; aladur+lar, kelədur + ler* kabi.

*Aladur+men* tipidagi forma hozir xakas, tuva, sho'r va boshqa ayrim turkiy tillarda saqlangan bo'lib, turli fonetik variantlarda qo'llanadi.<sup>19</sup>

Oltoy tilida bu forma tarkibidagi *-dɣɣ/-dir (-dur/-dɣr)* qisqarib, undan [r] undoshi tushib qolgan: *bara-dɣɣ-m* — «ya obychno ezju», «ya poedu», *bara-dɣɣ-n', bara-d; bara-dɣɣ-bɣs, bara-dɣɣ-gar, bara-dɣɣ-lar*.<sup>20</sup>

Bu formaning hozir turkman va ozarbayjon shevalarida, shuningdek, folklor asarlari tilida turli fonetik variantlarda qo'llanishi ham qayd qilingan.

Hozirgi o'zbek va boshqa ko'pchilik turkiy tillarda esa *-a/-ə(-y) +dur* affiksli *aladur+men* tipidagi forma *ala+men* (olaman) tipidagi hozirgi-kelasi zamon (yoki hozirgi zamon) fe'liga aylangan.

*Aladur+men* tipidagi forma eski o'zbek tilida quyidagi ma'nolarda qo'llangan:

1. Hozirgi zamon ma'nosida qo'llangan: *Bu yo'rtta xabar keldi kim, shah Mansurnıñ qızı Yusuf zaunıñ talı bilə keledır* (BN, 282).

*Dedi: qorg'ıl! ne yatıb-sen, qorg'ıl!..*

*Kimbir atıñny og'urılaydurlar,*

<sup>18</sup> O'sha manba 214.bet.

<sup>19</sup> V. G. Карпов. Iz'yavitel'noe naklonenie v xakasskom yazыke (Kand. diss.), M., 1955, str. 52; F. G. Isxakov, A. A. Pal'mbax. Grammatika tuvinskogo yazыka. Fonetika i morfologiya, M., 1961, str. 384;

<sup>20</sup> N. A. Baskakov. Altayskiy yazыk, «Yaz. nar. SSSR», II, str. 516.

*Seni uyqu birlə aldaydurlar* (ShN, 192).

*Аның қасди uchun yolg'a turkmən tushub, kishi otkərməydyr Uynың chində avaz berdilər: «Negə ichkəri kirməydyrlər* (TN, 23 a).

*Tushkən-mu madrasag'a ag'z-u beliñ hadisi?*

*Har hujradын chыqardur avaz qiyl-u qala* (Furq. 1. 31)

2. Takrorlanib turuvchi, doimiy ish-harakatni ko'rsatadi:

*Qaysylarны der edilər «Tamadur»*

*Qan alarның қылычыдын tamadur* (ShN, 137).

*Ba'zi yerdə shali ekibdyrlər. Ortasыдын үch төrt teg'irman suv aqыb baradur* (BN, 336).

*-a-e(-y)+dur* formasidagi fe'llarning bunday qo'llanishi asosan she'riy asarlar tili uchun xarakterli bo'lib, bu ma'no *hamisha, doim, har dam, har nafas, payvasta* kabi payt bildiruvchi so'zlar yordamida yana ham konkretlashadi:

*Lutfiyni tirgүzədur har nafas ul la'l labың,*

*Ushbu dam ichrə, Musiha, seni-oq kərdүm, bas*

(Lutf., 190 b).

*Təkədyr qanымны har dam көzləriң бақыb turub,*

*Kim nechə үзүтгə баққay-sen уығaqдын telмүгүb*

(Nav. ML, 10).

*Hamisha əylə meni Munising'a rahm, ey shox,*

*Ke qasды jan қылadur dard-u g'am hamisha menə.*

(Munis, 45).

3. Kelasi zamon ma'nosini ifodalaydi. Lekin *aladur + men* tipidagi forma bu ma'noda kam qo'llangan bo'lib, ayrim yodgorliklardagina kuzatiladi:

*Xan bu sөz birlə urush қылmaydur,*

*Cheriki qal'a sarы kelməydyr* (ShN, 69).

*Albatt, Sultan Xurasan birlən yav boladur* (Sh. turk, 138).

**3. Ala+men tipidagi forma.** Eski o‘zbek tilida ham hozirgi o‘zbek va ko‘pchilik turkiy tillardagi kabi bu formaga shaxs-son affikslarining to‘la variantlari qo‘shilgan: *ala-men, ala-sen, ala-miz (ala-biz), ala-siz (ala-sizlar)* kabi.

III shaxsda maxsus shaxs-son ko‘rsatkichi bo‘lmaganligi uchun *-dur* formanti saqlangan bo‘lib (*ala + dur, ala + dur + lar*), keyinchalik *-dur (-dur)* tarkibidagi [u], [y] lab unlilari [ы], [i] unlilariga o‘tgan, so‘ng oxirgi [r] undoshi tushib qolgan (*ala + dur > ala + dır > ala + ды, kelə + dur > kelə + dir > kelə + di; ala + dur + lar > ala + dır + lar > ala + ды + lar, kelə + dur + ler > kelə + dir + ler > kelə + di + lar* kabi).

Toshkent, Qarshi, Qarnob va boshqa ayrim o‘zbek shevalarida bu fe‘lning I shaxs ko‘pligi uchun *alavuz* tipidagi forma qo‘llanadi.<sup>21</sup>

*Ala + men* tipidagi formaning yozma manbalarda aks etishi- XIII—XIV asrlardan boshlab kuzatiladi. Lekin bu davrda u kam qo‘llangan bo‘lib, «Tafsir», «Qisas ul-anbiyo», kabi ayrim manbalardagina uchraydi. Misollar: Taf.— *Kiry qaytmay-men* (143a), *yana ichə-siz halim suvınyдын* (70a); Rabg‘.— *yig‘lay-men, siz kirməy-siz, eshitməy-siz.*

Yozma yodgorliklarning ko‘rsatishicha, o‘zbek tilida *ala-men* tipidagi formaning iste‘mol doirasi XV asrdan ma‘lum darajada kengaya borgan. Lekin uning aktiv qo‘llanishi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan kuzatiladi.

O‘zbek tilida bu fe‘lning *aladı, aladılar* tipidagi III shaxs birlik va ko‘plik formalari asosan XVIII—XIX asrlardan boshlab kuzatiladi. Lekin XX asr boshlariga qadar bu fe‘lning *aladur, aladurlar* tipidagi III shaxs birlik va ko‘plik formalari aktiv iste‘molda bo‘lib, *aladı, aladılar* tipidagi formalar kam qo‘llangan.

<sup>21</sup> Ya. G. Gulyamov. Grammatika tashkentskogo govora, Tashkent, 1968., str. 115; A. Shermatov. Qarshi shevasining ba‘zi morfologik xususiyatlari, UzDM, II tom, 207—208-betlar;

Bundan tashqari, XV asr va undan keyingi davrlarga oid ayrim yodgorliklarda bu fe'lining III shaxs birlik va ko'plik formalari tarkibidan *-dur* formantining butunlay tushib qolish ham uchraydi.

*Ala+men* tipidagi forma eski o'zbek tilida quyidagi ma'nolarda qo'llangan:

1. Ko'pincha hozirgi zamon ma'nosida qo'llangan:

*Dedim ke, ɵltyrə-sen ishq ara, nedyr gunahym?*

*Dedi ke, ishqдын artuq yana bolur-mu gunah?*

(Nav. FK, 159 a)

*Ahmad Yusuf beg izzirablar qylyb, har zaman aytadur kim, yalang'ach mundaq kirib bara-siz. Ikki-yuch oqny kɵrdym kim, bashyңыздын ɵtdi* (BN, 200).  
*Ey biradar, sabab nedyr ke, buyan ɵtməysiz* (Gulx, 42).

2. Odatdagi, doim yoki vaqti-vaqti bilan takrorlanib turuvchi ish-harakatni ifodalashda qo'llangan. *Ala + men* tipidagi formaning bunday qo'llanishi asosan she'riy asarlar tili uchun xarakterli bo'lgan.

*kim nedin bizgə yamanlyq qyla-siz,*

*Bashymыз ustigə har dam kelə-siz* (ShN, 147).

*Kyyyb firaqың otyda mudam uyг'lay-men,*

*G'atыңның zahryn ichib talxkat uyг'lay-men*

(Muq., 159).

3. Kelasi zamon ma'nosida qo'llangan: *Xatiring'a yetti kim, Ahmad Qavchinni charlab, ...atlarыны tiləb ala-men* (BN, 142). Emdi bara-miz. Sizlər ne ayta-siz? (Sh. turk, 163).

Eski o'zbek tilida *-a/-e(-y)* affiksli ravishdosh asosida yasalgan hozirgi zamon fe'li formalarining shaxs-son affikslari bilan tuslanish paradigmasi quyidagi ko'rinishda bo'lgan.

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I shaxs	<i>ala turur men</i> <i>aladur-men</i> <i>ala-men</i>	<i>ala turur miz</i> <i>aladur-miz (aladur-biz)</i> <i>ala-miz (ala-biz)</i>

II shaxs	<i>ala turur sen</i> <i>aladur-sen</i> <i>ala-sen</i>	<i>ala turur siz</i> <i>aladur-siz</i> <i>ala-siz</i>
III shaxs	<i>ala turur</i> <i>aladur</i> <i>aladı</i> <i>(ala)</i>	<i>ala turur (lar)</i> <i>aladur (lar)</i> <i>aladı (lar)</i> <i>(alalar)</i>

## 2.2. -a|-e(-y) affiksli ravishdosh asosida yasalgan hozirgi zamon fe'lining evolyutsiyasi haqida

Hozirgi o'zbek va boshqa ko'pchilik turkiy tillarda «hozirgi-kelasi zamon» nomi bilan ataluvchi *alaman (olaman)* tipidagi forma tarixan *ala + turur + men* tipidagi formadan kelib chiqqan. Keyingisi o'z navbatida tasviriy (analitik) yo'l bilan yasalgan bo'lib, ikki mustaqil komponentning birikuvidan tashkil topgan:

1) ravishdoshning -a/-e(-y) affiksli formasi; 2) *tur-* holat fe'lining hozirgi-kelasi zamon sifatdosh formasi ( + -shaxs-son affiksi). Demak, *alaman* tipidagi hozirgi-kelasi zamon fe'li tarixan ravishdosh emas, balki sifatdosh formasiga shaxs-son affikslari qo'shilishi yo'li bilan hosil bo'lgan. Lekin sifatdosh ko'rsatkichi fe'l negiziga bevosita emas, balki (ravishdosh ko'rsatkichi + ) *tur-* holat fe'li orqali qo'shilgan (*al + a + tur+ur > ala + turur*).

*Ala + turur+men* tipidagi formaning taraqqiyoti va uning *ala+men (alaman)* tipidagi formaga aylanishida quyidagi o'zgarishlar sodir bo'lgan:

1. Dastlabki qo'llanishda *ala + turur + men* formasi tarkibidagi komponentlarning har biri ma'lum darajada o'zining leksik-grammatik mustaqilligini saqlagan: birinchi komponent(*ala*) ish-harakatning nutq momentida mavjudligini, ikkinchi komponent (*turur*) esa nutq momentida ish-harakatning bajarilish protsessida ekanini, davom etib turganini ko'rsatadi. Demak, *ala + turur + men* tipidagi forma dastlabki qo'llanishida ikki tushunchani, ya'ni zamon va vid

(nutq momentida ish-harakatning bajarilish protsessida ekani, davom etib turgani) tushunchalarini ifodalagan. Qeyinchalik bu formaning komponentlari o'rtasida o'zaro bog'lanish mustahkamlana boradi va ular bir butun analitik konstruktsiyaning ajralmas qismlariga aylanadi. Natijada bu formada vid tushunchasi asta-sekin kuchsizlana boradi va zamon tushunchasi ustunlasha boradi. Shunday qilib, bu forma zamon ma'nosini ifodalovchi vosita sifatida shakllana boshlaydi. Bu formadagi semantik o'zgarish uning strukturasi ham ta'sir etadi: ikkinchi komponent (*turur*) o'zining mustaqilligini yo'qotib, birikmaning yordamchi elementiga aylanadi va undan hozirgi-kelasi zamon sifatdosh ko'rsatkichi *-ur* tushib qoladi, ya'ni unda grammatikalizatsiya hodisasi yuz beradi (*ala turur men* [*>ala durur men*]*>aladur-men*).

Yozma yodgorliklarning ko'rsatishicha, *ala + turur + men* tipidagi formaning *aladur + men* tipidagi formaga o'tish protsessi XIII—XIV asrlardan boshlangan. O'g'uz va qipchoq gruppalaridagi turkiy tillarda bu protsess XIV asrdayoq asosan tugallangan.

2. Ko'pchilik turkiy tillarda, shu jumladan, o'zbek tilida *aladur+men* tipidagi formaning formal o'zgarishi yana davom etib, uning tarkibidan I va II shaxslarda *-dur* formasi butunlay tushib qolgan va *ala+men* tipidagi formaga aylangan. III shaxsda esa, yuqorida qayd qilinganidek, *-dur* saqlangan bo'lib, keyinchalik uning tarkibidan oxirgi [r] undoshi tushib dolgan. Masalan, o'zbek tilida: *aladur>aladur>aladur*, *aladurlar>aladurlar>aladurlar* (hozirgi o'zbek tilida:oladi, oladilar).

Yozma yodgorliklar va hozirgi turkiy tillarda mavjud bo'lgan faktlarning ko'rsatishicha, *aladur+men* tipidagi formaning taraqqiyoti va uning *ala+men* tipidagi formaga o'tishi hamma turkiy tillarda bir xil planda sodir bo'lgan emas. Bu jihatdan turkiy tillarni shartli ravishda quyidagi uch gruppaga bo'lish mumkin:

a) turkiy tillarning bir gruppasida, masalan, xakas, tuva, sho'r tillarida bu forma tarkibidagi *-dur* formanti *-dur/-dir* formasida hozir ham saqlangan. Oltoy tilida esa oxirgi [r] undoshi tushib, *-dur/-di* (*bara-dur*) formasida saqlangan. Bu forma ushbu tillarda hozirgi-kelasi zamon fe'li sifatida shakllangan;

b) turkiy tillarning yana bir gruppasida, asosan, o'g'uz gruppasida *aladur+men* tipidagi forma keyinchalik o'z mavqeini yo'qotgan va yozuv adabiy tilda iste'moldan chiqqan. Buning sababi ushbu tillarda hozirgi zamon ma'nosini ifodalovchi *-maqda/-mækdə, -yor, -ur/-yr // -ır/-ir* affiksli formalarning ancha qadimdan shakllanganligidadir.<sup>22</sup> Hozir bu forma ozarbayjon va turkman tillarining ayrim shevalaridagina turli fonetik variantlarda qo'llanadi;

v) ko'pchilik turkiy tillarda esa, masalan, o'zbek, uyg'ur, qozoq qirg'iz, qoraqalpoq, tatar, boshqird tillarida *aladur+men* tipidagi forma asosida *ala+men* tipidagi forma vujudga kelgan. Bu tillarning aksariyatida *ala+men* tipidagi forma hozirgi-kelasi zamon, tatar va boshqird tillarida esa hozirgi zamon fe'li sifatida shakllangan.

Ayrim yodgorliklarda ba'zan I va II shaxslarda ham (asosan I shaxs birligida) turur (>*tur//dur*) qo'shilib kelishi kuzatiladi: [*Og'uz xan*] *bir yıl yurtında turub, ikkinchi yıl elgə jar qıldurdı: «Eran sarı yğrüb turur men, nechə yılıq g'amların yesunler»,— teb* (Sh. tar, 22-23).

Keltirilgan misollar shundan dalolat beradiki, *tur-*, *yat yur-*, *oltur-* holat fe'llaridan yasalgan hozirgi zamon formasining bu turi dastlab ikki komponentning birikuvidan tashkil topgan, ya'ni *turyat-*, *-yur-*, *oltur-* holat fe'llarining *-b* affiksli ravishdosh formasiga *tur-* holat fe'lining *-ur* affiksli: hozirgi-kelasi zamon sifatdosh formasi *turur* qo'shilgan: *turub turub men, yatıb turur men, yğrüb turur men, olturub turur men* kabi kabi (hozirgi o'zbek tilidagi «turibman», «yotibman», «yuribman», «o'tiribman» ma'nosida). Keyinchalik bu forma tarkibidagi *turur* qisqarishga uchrab, *-dyp/-dyp* formasidagi affiksga aylangan, so'ng *-dyp/-dyp* affiksi I va II shaxslarda butunlay tushib qolgan (*turub turur men*>*turubtur-men*>*turubdur-men*>*turub-men*, *yurub turur* kabi).

<sup>22</sup> M. Sh. Ragimov *Formy vyraženiya i buduşçego vremen v pis'mennyx ramyatnikax azerbaydjanskogo yazyka.*

*Tur-, yat-, oltur-* holat fe'llarining *-b* affiksli ravishdosh formasida yasalgan hozirgi zamon fe'li eski o'zbek tilida ham sub'ektning nutq momentidagi holatini ko'rsatish ma'nosida qo'llangan:

*Desnəñ kim, jan sipar qyl, Atayym!*

*Turub-men ushmunaq, əldur, at, ayym* (Otoy, 39a).

*Yuryb-men muncha maxfi ranj tartyb,*

*Valekin ashkara yuz qyzartyb* (F. iqb., 124a).

*Qyzylbash vilayatyň'ı ichinde olturub-miz* (Sh. Turk, 173). *Сувның yaqasında bir nechə zaifalar kir yuva tururlar. Atasynyň inisi Urxannıñ qyzy munlarn'ı ichində olturub turur* (Sh. tar., 15).

*Yur-* fe'li esa kontekst mazmuniga ko'ra sub'ektning nutq momentidagi holatini yoki uning ish-harakatini ko'rsatishi mumkin. Qiyoslang:

*Yuryb-men xasratynda munda uyg'lab,*

*Kezar-sen aysh ilə ishratda anda* (Furq. I, 28).

[*Sangpusht*] *nagah arqasyg'a baqdy, kərdi ke, yoldashy yolda xarg'an, ...nayzasyny kiftiga tik yshlab, yo 'qary-quyuy yurybdur* (Gulx., 42).

Misollarning birinchisidagi *yurub-men* fe'li sub'ektning nutq momentidagi holatini, ikkinchisidagi *yurubdur* esa sub'ektning nutq momentidagi konkret harakatini, ya'ni yurish protsessida ekanini ko'rsatadi.

Ma'lumki, hozirgi o'zbek tilida *turmoq, yotmoq, yurmoq, o'tirmoq* fe'llarining *-b* affiksli ravishdosh formasiga shaxs-son affikslari qo'shilishi bilan yasalgan forma kontekst mazmuniga ko'ra hozirgi zamon yoki o'tgan zamon ma'nosini ifodalashi mumkin. Bu hol ushbu fe'llarning o'ziga xos semantik xususiyati bilan bog'liq hodisadir. Ya'ni bu fe'llar holatni ifodalaganda, hozirgi zamon ma'nosini, konkret ish-harakatni ifodalaganda esa o'tgan zamon ma'nosini bildiradi. Eski o'zbek tilida bu hodisa oltur- fe'lga xos bo'lib, bu ham ayrim manbalardagina kuzatiladi. Masalan: *Xazrati risalat zamanıdyñ bu tarixqacha ul yuz padshahlarıdyñ uch kishi Hindustan vilayatyg'a musallit bolub, saltanat*



*qılıbturlar: bir[i] Sultan Muxammad G‘azi va avladı Hindustan vilayatyda muddati madid saltanat taxtyg‘a olturubturlar...(BN, 348). Yamir eli xalqynyñ asly mundaq turur kim, Manq‘shlaqda ichki salurdyñ bir kishi bir ichki salurny ɵlturyb, qachyb Durunda olturg‘an salur eliniñ ichinə kelib turur taqy anlardyñ bir qyz alyb, anda vatan qılıb olturub turur (Sh. Tar, 71). Bu misollarda olturubturlar va olturub turur fe‘llari o‘tgan zamon ma’nosida qo‘llangan bo‘lib, konkret ish-harakatni ifodalaydi.*

*Tur-, yat-, yur-, oltur-* holat fe‘llaridan hozirgi zamon fe‘lining ikkinchi usul bilan yasalishi. Eski o‘zbek tilida bu fe‘llarning hozirgi zamon formasi sifatdoshning *-ur* affiksi yordamida ham yasalgan. I va II shaxslar uchun shaxs-son affikslarining to‘la formasi qo‘shilgan. III shaxs ko‘pligi uchun *-lar/-ler ko‘plik affiksi qo‘shilgan: turur-men, turur-sen, turur- miz, turur-siz(lər), turur, tururlar* kabi.

Eski o‘zbek tilida *tur-, yat-, yur-, oltur-* holat fe‘llarining *-ur* affiksli formasi asosan hozirgi zamon ma’nosida qo‘llangan: *Balqis bu karamat birlə Sulayman xazratynda kirdi, kɵrdi: Sulayman taxt yzə olturur (Rabg‘. T. 520).*

Bundan tashqari, *tur-, yat-, yur-, oltur-* holat fe‘llarining *-ur* affiksli formasi eski o‘zbek tilida quyidagi ma’nolarda ham qo‘llangan:

a) odatdagi ish-harakatni ko‘rsatuvchi «umumzamon» ma’nosida qo‘llangan: *Kechə kɵchyb, kunduz yataturlar (Sh. turk, 126). Ul vilayat loliları ikki yyg‘achny ayag‘laryg‘a bag‘lab,»payi chobin» qılıb yol yuryrlər (BN, 457).*

b) payt bildiruvchi *daim, mudam* kabi so‘zlar yordamida ma’lum bir grammatik zamon bilan bog‘liq bo‘lmagan doimiy holat ifodalanadi, ya’ni sub’ektning doim shu fe‘llar ifodalagan holatda ekanligi ko‘rsatiladi:

*Mudam ɵsruk yatur mehrab ichində,*

*Magar kafir kɵzuñ tarxan bolubtur (Otoyı, 136),*

*Paybusyñ arzusyda hamisha jan chekib,*

*Olturur daim yoluñda Furqati dedast-u pa (Furq. 175).*

v) *kelasi zamon ma’nosida ham qo‘llangan: Andyñ soñ sensiz bu dunyada*

*yurumək mang‘a haram turur. Özumni özüm öltürür- men taqı seniñ ayaq üçhiñdä yatur-men* (Sh. Tar., 56-57).

Shunday qilib, *tur-*, *yat-*, *yur-*, *oltur-* holat fe'llarining hozirgi zamon formasi eski o'zbek tilida ikki xil yo'l bilan yasalgan: a) bu fe'llarning *-b* affiksli ravishdosh formasiga (*+turur>r>tur//dur*) shaxs-son affikslari qo'shilishi bilan; b) bu fe'llarning *-ur* affiksli sifatdosh formasiga shaxs-son affikslari qo'shilishi bilan. Bulardan *-b* affiksli ravishdosh asosida yasalgan formaning qo'llanishi asosan XV asrdan boshlab kuzatiladi, *-ur* affiksli sifatdosh asosida yasalgan forma esa, yozma yodgorliklarning ko'rsatishicha, eski o'zbek tili taraqqiyotining hamma davrlarida iste'molda bo'lgan.

Shu narsa xarakterliki, boshqa turkiy tillarga oid yodgorliklarda, masalan, «Kodeks kumanikus», «Kitobi Dada-Qo'rqud» asarlarida, qadimgi uygur tiliga oid manbalarda faqat *-ur* affiksli sifatdosh orqali yasalgan forma qo'llangan. Masalan: *Tag'dyn uynaqqa kerser-men, tortä arklig qan olurur. Qachan chыqtыlar Yarusalamdan, uch yulduz äkinchi kërundi, bardы ilgäri aña dægri ol ävgä,qayda Xristos yatыр, ...*

XI asr yodgorligi «Qutadg'u bilig»da ham faqat *-ur* affiksli sifatdosh orqali yasalgan forma qo'llangan:

*Əshitti Ilik, aydy: kəldur, qаны,  
Qayuda turur, bir kərəyin annы  
Mən əmdi əv ichra yatur-mən osal  
Ishim barcha tashtын, ay bilgi tygəl* (QB, 210 a)

Yuqorida qayd qilingan faktlar asosida quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: *tur-*, *yat-*, *yur-*, *oltur-* holat fe'llarining *-ur* affiksi bilan yasalgan hozirgi zamon formasi hamma turkiy tillar uchun umumiy bo'lib, qadimiy formadir.

Shu munosabat bilan «Grammatika altayskogo yazыka» kitobida aytilgan quyidagi fikr diqqatga sazovordir: «Iz vseх glagolov v altayskom (i kirgizskom) yazыke, kak nekotore isklyuchenie, otlichayutsya sleduyushie chetyre glagola: jat «leji», tur «stoy», ottur «sidi». Eti glagoly, osobenno tri pervыe, oznachayut еще otvlechenno naxojdenie i takje prebyvanie v deystvii ili sostoyanii. Otlichie ix ot

vsex drugix glagolov sostoit v tom, chto tol'ko oni imeyut samostoyatel'no obrazovannuyu formu sobstvennonastoyashchego vremeni. Polnaya tyurkskaya forma (razryadka bizniki.— Sh. Sh.) etogo vremeni oznachennykh chetyrex glagolov est': *yatyr, turur, oturur* t. e. okanchivaetsya na r s predyduщей begloyы ili u»<sup>23</sup>

Keyinchalik turkiy tillarda bu fe'llarning har xil yo'llar bilan yasalgan hozirgi zamon formalari vujudga kelgan. Masalan, hozir tuva, qozoq, no'g'oy va boshqa ayrim turkiy tillarda *tur-*, *yur-*, *oltur-* holat fe'llarining hozirgi zamon formasi bu fe'llarning negiziga shaxs-son affikslarining bevosita qo'shilishi bilan hosil bo'ladi, ya'ni hozirgi zamon formasining yasalishida bu fe'llar tarkibidan *-ur* affiksi tushib qoladi. Hozirgi turkman tilida holat fe'llarining hozirgi zamon formasi quyidagicha ikki xil yo'l bilan yasaladi: *duryar//duur, yatya //yatыыр, yøryær//yøør, oturyar//отыыр*.

Kelasi zamon ma'nosining ifodalanishi va bu ma'noni *ifodalovchi* formalar bo'yicha ham eski o'zbek tili hozirgi o'zbek tilidan farq *qiluvchi* o'ziga xos xususiyatlarga ega. Hozirgi o'zbek tilidagi kelasi zamon fe'li masalasida o'zbekshunoslar o'rtasida birlik yo'q. Masalan, A. G'. G'ulomov *-a(-y) +digan* affiksli *oladigan* tipidagi formani ham kelasi zamon fe'li sifatida qaraydi va uni «kelasi zamon davom fe'li» deb ataydi. S. Usmonov va J. Jo'rayevalar kelasi zamon fe'li formalari gruppasiga *-moqchi* affiksli *olmoqchi* tipidagi formani ham qo'shadilar va bu formani «kelasi zamon maqsad fe'li» nomi bilan ataydilar.

A. N. Kononov bu formalarni «Формы глагола, выражающие модальные оттенки» bo'limida qaraydi va ularni «modal'nost' na *-moqchi*», «modal'nost' na *-a+digan*» nomlari bilan ataydi.<sup>24</sup>

*-(a)r* affiksli *olarman* tipidagi forma hozirgi o'zbek tiliga oid adabiyotlarda odatda «kelasi zamon gumon fe'li» nomi bilan atalib, kelasi zamon fe'li formalari

<sup>23</sup> Grammatika Altayskogo yazyka (sostavlena chlenami Altayskoy missii), Kazan', 1869, str. 56.

<sup>24</sup> A.N. Kononov. Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazyka, M.—L., 1960, str. 278, 280.

gruppasiga kiritiladi. A. Hojiev bu formani hozirgi-kelasi zamon fe'li sifatida qaraydi va uni «hozirgi- kelasi zamon gumon fe'li» nomi bilan ataydi.

A. A. Koklyanova esa hozirgi o'zbek tilida bu forma ish-harakatning bajarilishidagi gumon, taxmin kabi ma'nolarni ifodalaganligi uchun uni aniqlik mayli formalari gruppasiga qo'shib bo'lmaydi, degan mulohazani aytadi.<sup>25</sup>

Mavjud faktlarning ko'rsatishicha, hozirgi o'zbek tilida kelasi zamon ma'nosini ifodalash uchun asosan *olaman* tipidagi hozirgi-kelasi zamon fe'li bilan *-(a)r* affiksli *olarman* tipidagi kelasi zamon gumon fe'li qo'llanadi. *-moqchi*, *-a-(y) +digan* affikslari bilan yasalgan *olmoqchiman*, *oladiganman* tipidagi formalar esa o'ziga xos modallik ma'nolariga ega bo'lib, ularni aniqlik maylining kelasi zamon formalari sifatida qarash to'g'ri bo'lmaydi.

Eski o'zbek tili uchun xarakterli bo'lgan *-g'u* affiksli *alg'um-* (*dur*) tipidagi forma va Xorazm dialekti uchun xos bo'lgan *-ajaq* affiksli *alajaqman* tipidagi forma hozirgi o'zbek tilining umumiy normasiga kirmaydi. Eski o'zbek tili uchun xarakterli bo'lgan va Xorazm shevalarida iste'molda bo'lgan *-g'ay* affiksli *alg'ayman* tipidagi forma esa hozirgi o'zbek tilida asosan istak, tilak, orzu kabi ma'nolarda qo'llanadi. Bu formalar hozirgi o'zbek tilida juda kam iste'molda bo'lib, badiiy adabiyotda, asosan, she'riy asarlarda uchraydi.

Yozma yodgorliklardan ma'lum bo'lishicha, eski o'zbek tilida kelasi zamon fe'lini asosan *-g'u* affiksli *alg'um(dur)* tipidagi forma bilan *-g'ay* affiksli *alg'aymen* tipidagi forma tashkil etgan. Shu bilan birga, yuqorida ko'rganimizdek, eski o'zbek tilida kelasi zamon ma'nosini ifodalash uchun *-r* affiksli *alur-men* tipidagi hozirgi-kelasi zamon fe'li bilan *ala-men* (<*aladur-men*<, *ala turur men*) tipidagi hozirgi zamon fe'li ham qo'llangan.

Bulardan tashqari, ayrim manbalarda kelasi zamon fe'lining *-asbi/-əsi*, *-ısar/-isər*, *-ıjak/əjək* affiksli formalari ham kuzatiladi. Bu formalar o'zbek tiliga oid bo'lgan yoki o'zbek tiliga ma'lum darajada aloqador bo'lgan manbalarning

<sup>25</sup> A. A. Koklyanov. Kategoriya vremeni v sovremennom uzbekskom yazyke, M., 1963, str. 10—12.

ayrimlaridagina uchraydi, bularda ham faqat III shaxs birlik formasida qo‘llangan.

1. *-ası/-əsi*. affiksli forma XIII—XIV asrlarga oid ayrim manbalarda qayd qilindi: *Bu shaharg‘a bir payg‘ambar hijrat qılası turar, ya‘ni keləsi turur* (Taf., 46 b). *Bilyrsen kim, ul iman keltyrəsi turur* (Taf. 124 a).

2. *-ısar/-isər* affiksli forma XIV asrga oid yodgorliklarning ayrimlarida qo‘llangan:

*Ichəliñ badanı, gullar solısar,*

*Тапымыз ақібат туфрақ болıсар* (MN, 309 a).

*Өзимізга өзіміз уығ‘ласақ һар,*

*Kim ush biz-tek bizə kim уығ‘лауысар* (XSh, 113 a)

*Yarash bu bag‘rı tash birlə, ey yar,*

*Kim ush tyn bardı, bu kun qalmaqıсар* (XSh 98 a)

*Bolusar ul yaqında elgə muhtaj*

*Chekib iflas elidin көр mashaqqət* (Saroyi, 142 b).

*Minnat көтырыб тирілгән er xar өлісәр*

3. O‘zbek tilida *-ajaq/-əjak* affiksli formaning qo‘llanishi XVIII—XIX asrlardan boshlab kuzatiladi. Lekin bu davrda ham ushbu forma xorazmlik shoirlarning asarlaridagina uchraydi. Masalan:

*Gulshani bazmım ara zulfi samana keləjak,*

*Ag‘zı g‘uncha, yuzi gul, qamatı zeba keləjak*

(Kamil Xorazmiy)

O‘zbek tilida bu formaning XX asr boshlaridan (asosan vaqtli matbuot sahifalarida) ma‘lum darajada aktivlasha borganini kuzatiladi va 1920—30 yillarda turli janrlarga oid asarlarda ancha aktiv iste‘molda bo‘lgan.<sup>26</sup> Hozir esa, yuqorida

<sup>26</sup> B. Turdialiev. Morfologicheskie osobennosti yazıka periodicheskoy pechati 1905—1917 gg., ADD, Tashkent, 1969, str. 20

aytilganidek, Xorazm dialekti uchun xos boʻlib, oʻzbek adabiy tilida kam qoʻllanadi, asosan badiiy adabiyotda kuzatiladi.

Kelasi zamon feʼlining *-asbi/-əsi*, *-bisar/-isər*, *-ajaq]-əjək* affiksli formalari tarixan oʻgʻuz gruppasidagi turkiy tillar uchun xarakterli boʻlib, bu tillarga oid yozma manbalarda ham aktiv isteʼmolda boʻlgan.

### 2.3 -gʻay affiksli forma

Bu forma tarixan qipchoq va qorluq gruppasidagi turkiy tillar, shu jumladan, oʻzbek tili uchun xarakterli boʻlgan, qadimgi uygʻur tiliga oid manbalarda ham aktiv isteʼmolda boʻlgan. Oʻrxun tekstlarida uchramaydi, enisey tekstlarida esa, I. A. Batmanovning kuzatishiga koʻra, *er-* toʻliqsiz feʼli bir martagina shu formada qoʻllangan: «V eniseyskix tekstax vstretilsya, lishʼ odin takoy primer: RʼGʼY — *ergey* — хорошо бы, что бы было».<sup>27</sup>

-gʻay affiksli forma hozir asosan Oltoy va Sibirdagi tuva, oltoy, toʻfalar, xakas, shoʻr va boshqa turkiy tillar uchun xarakterli boʻlib qipchoq va qarluq gruppasidagi turkiy tillarda ham maʼlum darajada qoʻllanadi. Oʻgʻuz gruppasidagi turkiy tillarda qoʻllanmaydi, bu tillarga oid boʻlgan yozma yodgorliklar tili uchun ham xarakterli boʻlmagan. Lekin shu gruppaga mansub boʻlgan turkman tili bundan mustasno. Turkman tiliga oid boʻlgan yozma yodgorliklarda bu forma ancha aktiv isteʼmolda boʻlib, hozir turkman shevalarining ayrimlarida qoʻllanadi. Bu hol turkman tilining qipchoq va qorluq gruppasidagi turkiy tillar bilan qadimdan yaqin aloqada boʻlib kelganligi va bu tillarning turkman tiliga taʼsiri natijasi ekanligi shubhasizdir.

Eski oʻzbek tilida -gʻay affiksi jarangli [gʻ], [g] undoshlari bilan boshlanuvchi -gʻay/gəy va jarangsiz [q], [k] undoshlari bilan boshlanuvchi -qay/-kəy variantlarida qoʻllangan. Bulardan qaysi birining ishlatilishi shu affiksni qabul

<sup>27</sup> I. A. Batmanov. Язык eniseyskix pamyatnikov drevnetyurkskoy pis`mennosti, Frunze, 1959, str. 87.

qilgan fe'l o'zagining qattiq yoki yumshoqligiga, shuningdek, fe'l oxiridagi undosh tovushning jarangli yoki jarangsiz bo'lishiga bog'liqdir. Jarangsiz undosh va jarangli [g'] undoshi bilan tugagan qattiq o'zakli fe'llarga *-qay*, jarangsiz undosh va jarangli [g] undoshi bilan tugagan yumshoq o'zakli fe'llarga, *-kəy* varianti, qolgan o'rinlarda *-g'ay/-gəy* variantlari qo'shilgan: *qorq + qay*, *yap + qay*, *sach + qay*, *yarut+qay*, *tuq + qay* (<*tug'+qay*), *tək + kəy*, *yet + kəy*, *tuk + kəy* (<*tug + kəy*), *tek+kəy* (<*teg + kəy*), *bar + g'ay*, *bashla + g'ay*, *bil + gəy*, *ishlə + gəy* kabi. «Qutadg'u bilig», «Devonu lug'otit turk» asarlarida jarangsiz *-qay* varianti faqat jarangli [g'] undoshi bilan tugagan qattiq o'zakli fe'llarga (*sag'+qay*, *ag' + qay*), jarangsiz *-kəy* variantga jarangli [g] undoshi bilan tugagan yumshoq o'zakli fe'llarga (*teg + kəy*, *eg + kəy*), boshqa o'rinlarda esa jarangli *-g'ay /-gəy* variantlari qo'shilgan. XI asr tilida bu affiks variantlarining shu xilda qo'llanganligini Mahmud Qoshg'ariy ham qayd qilgan. Aftidan, bu affiks dastlab faqat jarangli *-g'ay/-gəy* variantlarida qo'llangan bo'lib, uning jarangsiz *-qay/-kəy* variantlari so'ng paydo bo'lganga o'xshaydi.

Eski o'zbek tilida *-g'ay(-gəy, -qay, -kəy)* affiksi oxirgi [y] undoshisiz *-g'a(-gə, -qa, -kə)* formasida ham qo'llangan. Lekin keyingisi she'riy asarlar tili uchun xos bo'lib, I va II shaxslarning birlik va ko'plik formalarida qo'llangan.

*-g'ay* affiksining *-g'a* formasida qo'llanishi XI—XIV asrlarga oid yodgorliklardan «Qutadg'u bilig» va «Xisrav va Shirin» asarlari tili uchun ham xarakterli bo'lib, bu asarlarda keyingisi III shaxs formasida ham ancha keng qo'llangan:

*Seçə men kərəkiñ baqa turg'a-mən,*

*Qamug' ishləriñni səvə qylg'a-mən* (QB, 26 a).

*Igin əzgü bolg'a, əsən bolg'a-sən,*

*Yazuqun aryg'ay, muyan bulg'a-sən* (QB, 215a)

*-g'ay* affiksining *-g'a* formasida qo'llanishi «Devonu lug'otit turk», «Hibat ul haqoyiq» asarlarida ham kuzatiladi. *-g'ay* affiksining *-g'a* formasida qo'llanishi haqida Ibn Muhanna va Abu Hayyon asarlarida ham qayd qilingan.

Demak, *-gʻay* affiksining [y] undoshisiz *-gʻa* formasida qoʻllanishi oʻzbek va boshqa turkiy tillar tarixida xarakterli hodisa boʻlgan.

Eski oʻzbek tilida ham hozirgi va qadimgi turkiy tillardagi kabi *-gʻay(-gʻa)* affiksli formaga shaxs-son affikslarining toʻla formalari qoʻshilgan.

Shaxs	Birlik	Koʻplik
I Shaxs	<i>algʻay-men // algʻa-men</i>	<i>algʻay-miz // algʻa-miz</i> ( <i>algʻay-biz // algʻa-biz</i> )
II Shaxs	<i>algʻay-sen // algʻa-sen</i>	<i>algʻay-siz // algʻa-siz</i>
III Shaxs	<i>algʻay (algʻa)</i>	<i>algʻaylar (algʻalar)</i>

XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda *-gʻay(-gʻa)* affiksli feʼlning I shaxs birligining yasalişida shaxs-son affiksi *-ım /-im, -ın /-in*. yoki *-m* formasida ham qoʻshilgan, yaʼni *bargʻay-men, bilgəy-men* oʻrnida *bargʻayım, bilgəyim, bargʻayʼn, bilgəyin, bargʻam, bilgəm* formalari qoʻllangan.

*-gʻay* affiksining etimologiyasi va tarkibi masalasi deyarli oʻrganilgan emas.

Bu affiksning etimologiyasi va tarkibi haqida gapirilganda, birinchi navbatda, uning *-gʻa* formasida ham qoʻllangani faktiga eʼtibor berish, *-gʻay* va *-gʻa* formantlaridan qaysi birining qadimiy ekanligini aniqlash kerak boʻladi. Bu haqda ikki xil fikr aytilgan. A. Gabenning koʻrsatishicha, *-gʻa* formanti qadimiy boʻlib, keyinchalik unga [y] qoʻshilishi bilan *-gʻay* affiksi vujudga kelgan (*-gʻa + y > -gʻay*), *-gʻa* formanti esa aslida feʼldan ism yasovchi (Verbalnomen) affiks boʻlgan. Avtor *-gʻay* affiksining «Qutadgʻu bilig»da *-ga* formasida ham qoʻllangani, «Devonu lugʻotit turk» va boshqa manbalarda «oʻylamoq, fikrlamoq» maʼnosidagi *o-* feʼliga *-gə* qoʻshilishi bilan yasalgan *əgə* (aqli, tajribali) formasining yasalişhi kabi faktlarga asoslanib shunday xulosaga kelgan. Boshqa tadqiqotchilarning koʻrsatishicha bu affiksning *-gʻay* formasi qadimiy boʻlib, *-gʻa* formasi keyingi hodisadir, yaʼni bu affiks dastlab *-gʻay* formasida qoʻllangan boʻlib, keyinchalik uning tarkibidan [y] undoshining tushib qolishi natijasida *-gʻa* varianti vujudga kelgan.



Mavjud faktlar bu affiks dastlab -g‘a formasida qo‘llangan bo‘lib, keyinchalik unga [y] undoshi qo‘shilishi bilan -g‘ay formasi vujudga kelgan, degan fikrni tasdiqlaydi.

-g‘a formanti aslida hozirgi-kelasi zamon ma’nosidagi sifatdosh formasini yasovchi affiks bo‘lgan. Lekin yodgorliklar tilida bu affiks yordamida *bil-* (bilmoq), *o-* (o‘ylamoq, fikrlamoq) kabi ayrim fe’llardangina sifatdosh yasalishi kuzatiladi (*bil+gə, o+ge*).

Yodgorliklarda *əgə* sifatdoshi asosan otlashgan holda, ba’zan atributiv pozitsiyada qo‘llangan. *Bilge* sifatdoshi esa quyidagi uch holatda qo‘llangan:

1. Predikat funksiyada kelgan: *Nəgə bilgə telva bilig qadrını* (QB). *Biligsiz nə bilgə bilig qimmatı* (QB).

2. Atributiv pozitsiyada (aniqlovchi vazifasida) qo‘llangan: *Bilgə qag‘an ərmis* (KT). *Bilgə Tonyuquq qazg‘antuq ychyn* (Ton). *Əshitkil Һagə bəky bilgə bəg* (QB). *Bilgə ərig əzgy tutub, səzin əshit* (MK).

3. Otlashgan holda qo‘llangan: *Alp chərikdə, bilgə tirikdə* (MK). *Əkysh səzləyy bilgə bolmas kishi* (QB).

*Bilgə* sifatdoshi otlashganda, ot kategoriyasiga xos bo‘lgan egalik, kelishik va ko‘plik affikslarini ham qabul qiladi: *Nəgə tər, əshit təjik bilgəsi. Təjik bilgələri chavıqar kyki* (QB).

*Unamadı, aydı: qazashың halы,*

*Yavuzraq, əy bilgəm, kynər-tək yolı* (QB).

*Bu Oytoldı aydı: səzyg bilgədin,*

*Eshitgy, biligsizgə aysa kəzin* (QB). (Olt. Yor).

Demak, turkiy tillar taraqqiyotining qadimgi davrlarida -gə yordamida yasalgan *bilgə* tipidagi hozirgi-kelasi zamon sifatdosh formasi mavjud bo‘lib, bu forma dastlabki davrlarda predikativ funksiyada qo‘llangan, atributiv pozitsiyada kelgan, shuningdek, otlashgan holda ham aktiv qo‘llangan. Keyinchalik uning predikativ funksiyasi rivojlangan va unga [y] undoshi qo‘shilib, -gəy(-g‘ay, -qay, -kəy) affiksi vujudga kelgan. Bunda [y] undoshi dastlab III shaxs birligiga, ya’ni so‘z oxirida kelgan ochiq bo‘g‘inga qo‘shilgan (*bilgə > bilgəy*).

-g'a(-gə) affiksi o'z navbatida ikki mustaqil affiksning birikuvidan tashkil topgan murakkab affiks bo'lib (-g'+a), bulardan birinchisi, ya'ni -g'(-g) formanti fe'ldan ism yasovchi -g'(-g) affiksini eslatadi (*bil + [i]g>bilig, ə + g>əg*). Ikkinchisi, ya'ni -a(-ə) formanti esa sifatdosh hamda ravishdosh ma'nolarini ifodalovchi affiks bo'lishi mumkin.

-g'ay affiksli forma eski o'zbek tilida quyidagi ma'nolarda qo'llangan:

1. Kelasi zamon ma'nosida qo'llangan: *Taqy kərgəy-sen: xalayıqlar kim, kirgəylər, ...* (Taf., 114 b). *Tavratda kərdilər kim, shundag'suvrat-u sifatlıg'og'lan tug'g'əy, Baytulmuqaddasni xarab qylg'ay taqy əkysh artuq ishlər qylg'ay* (Rabg'., 600).

*Bir kechə barg'ay-men, tedi, qashyg'a,*

*Kim Xojasta atlıg' zebai arus* (TN, 13 b).

2. «Umumzamon» ma'nosini ifodalaydi. -g'ay formasidagi fe'llarning bunday qo'llanishi asosan maqollarda, hikmatli iboralarda kuzatiladi: *Shah uldur kim, almag'ay-u bergəy; gada uldur kim, sachmag'ay-u tergəy* (Nav. MQ, 73).

3. Kontekstda *har dam, har vaqt, har nafas, hamisha, payvasta* kabi payt ma'nosidagi so'zlar bo'lganda, -g'ay formasidagi fe'llar ifodalagan ish-harakat doimiy, takrorlanuvchi xarakterga ega bo'ladi:

*Vah, nechə jismimni g'amd'ı natavan etkəy firaq?*

*Natavan jisming'a har dam qasdi jan etkəy firaq.*

(Nav. G'S, 59 a)

4. Nutq momentidan keyin bajarilishi taxmin, faraz qilingan ish-harakatni ifodalaydi, ya'ni hozirgi o'zbek tilidagi -(a)r affiksli kelasi zamon gumon fe'li ma'nosida qo'llangan: *Bu tayaq kishinih amnatı turur, boltay kim, izisi kelgəy, qolg'ay* (Taf. 28 b).

-g'ay formasidagi fe'llar taxmin, faraz kabi ma'nolarda qo'llanganda, ish-harakat o'tgan zamonga taalluqli bo'lishi ham mumkin, ya'ni bunday hollarda ish-harakatning nutq momentidan oldin bajarilganligi (yoki bajarilmaganligi) taxmin

qilinadi. Mas: *Taxtyny ushbu yerdə qoyg‘ay teb, taxtnyñ tørt ayag‘лары turg‘an yerni qazdy* (Rabg‘. T, 404).

Keltirilgan misollarda -g‘ay formasidagi *qoyg‘ay, bolg‘ay* fe‘llari hozirgi o‘zbek tilidagi «qo‘ygandir» (yoki «qo‘ygan bo‘lsa kerak»), «bo‘lsa kerak» ma‘nosida qo‘llangan bo‘lib, ish-harakatning bajarilganligi haqida taxmin, faraz qilinganini ko‘rsatadi. Bu ma‘noda ko‘pincha -*mish* yoki -*g‘an* affiksli o‘tgan zamon sifatdoshiga *bol-* fe‘lining -*g‘ay* affiksli formasi qo‘shilishi asosida hosil bo‘lgan -*mish* + *bolg‘ay* yoki -*g‘an* + *bolg‘ay* tipidagi forma qo‘llangan.

5. Tilak, istak, xohish kabi ma‘nolarni ifodalaydi:

*Jatalyñ nur salg‘ay tufrag‘ymg‘a,*

*Sevüngəy qalbym, ruh-u ravanym* (DN, 137 a).

*Ushbu erdi meñə havas daim,*

*Kim oshul yerdə bolg‘a-men nahim* (Nav. SS. 115).

*Sizni kərməy barurg‘a ixtiyar yoqluqdyñ chara tapmay, becharavar azimat vaqe boldy. Sag‘-salamat, təñri panahida bolg‘aysiz* (Nav. Mnsh, 19).

6. Iltimos ma‘nosini ifodalaydi:

*Əlgəli yetti Atayi ul qadd-u qamat үchүн,*

*Qylg‘a-siz sarv-u sanabardyn apanyñ tabutyñy* (Otoyı, 67).

*Dostlar, kənlümdəgin qabrym tashyg‘a yazg‘ay-siz,*

*Ta birdek bolg‘ay ul ay ishqyda ichim tashym* (Bobur, 25).

-g‘ay affiksli formaning iltimos ma‘nosini ifodalashi bu formaning ergash gapli qo‘shma gap tarkibida qo‘llanganida yana ham aniqroq ko‘rinadi. Bunday hollarda -g‘ay affiksli forma ergash gapning kesimi vazifasida kelgan bo‘lib, bosh gapning kesimi *tilə-*, *iltimas qyl-* kabi fe‘llarning o‘tgan zamon formasi bilan ifodalanadi:

7. Maslahat, nasihat kabi ma‘nolarni ifodalaydi: *Bu kün mən netək qyldym ersə, sen mendin soñ mundag‘ qylg‘ay-sen teb, ul og‘lang‘a nasiat qylu səzlədi* (Rabg‘. 15 a). *Said Yusuf beg va ba‘ziniñ rayy barin kim, qysh yavuyqtur, fialal*

*Lamg‘anat barylg‘ay andyn yana ar maslahat roy bersə aña yarasha amal*

*qылg'ay-biz* (BN, 154).

8. Maqsad, niyat kabi ma'nolarni ifodalaydi. *-g'ay* affiksli forma bunday ma'noda odatda maqsad ergash gapning kesimi vazifasida kelib, bu ergash gap bosh gap bilan *kim // ke, ta, take* kabi bog'lovchilar yordamida birikadi: *Sharim Tag'ayini Husrav shahqa qoshub yıbarılıb edi kim Husrav shahni Xurasan uzatıyb, Өzi barıyb urıqnykeltırgay* (BN, 154). *Yaxshılarınyı tutub Өltırsyn, ta yamanları hukmga boyun qoıyg'aylar* (Sh. tar. 59).

9. Buyruq ma'nosini ifodalaydi. *-g'ay* affiksli forma bu ma'noda asosan to'ldiruvchi ergash gapning kesimi vazifasida qo'llanadi, bosh gapning kesimi esa odatda *buyur-,ukm qыл, hukm aylə, farman qыл* kabi fe'llarning o'tgan zamon formasi bilan ifodalangan bo'ladi: *Farman boldı kim, tolg'amag'a tayin bolg'anlar, ...urushg'a mashg'ul bolg'aylar* (BN, 345). *Buyurdı kim, q qabal asbabıg'a mashg'ul bolg'aylar* (Sh. Turk, 71).

10. Fe'l o'zagidan anglashilgan ish-harakatning bajarilishiga bo'lgan ishonch, umid kabi ma'nolarni ifodalaydi. *-g'ay* affiksli forma bu ma'noda qo'llanganda ham odatda ergash gapning kesimi vazifasida keladi: *Umid ul kim, chun oqug'uchıylar diqqat-u e'tıbar kƏzi bilə nazar salg'aylar va har qaysi Өz fahm-u idrag'a kƏrə bahra alg'aylar* (Nav. MQ, 8). *Umidvar-men ke madamul hayat alarg'a tabe bolub, alarnıy xızmatıda bolg'ay-men* (Sh. turk, 50).

11. Nihoyat, ba'zi yodgorliklarda (asosan she'riy tekstlarda) *-g'ay* formasidagi fe'llar ba'zan shart ergash gapning kesimi vazifasida ham kelgan, ya'ni hozirgi-kelasi zamon shart fe'li o'rnida qo'llangan: *Har kim ke ul yolg'a azim bolg'ay, ikki jahan saadatı aña mulazim bolg'ay* (Nav. MQ, 133).

Keltirilgan misollarda *-g'ay* formasidagi *azim bolg'ay, qazg'ay, bolg'ay* fe'llarining «azim bo'lsa», «qazsa», «bo'lsa» ma'nosida qo'llangani anglashilib turibdi.

Tarixiy taraqqiyot protsessida *-g'ay* affiksli formaning ma'nosida ma'lum o'zgarishlar yuz bergan.

XI—XIV asrlarga oid yozma manbalarda bu forma asosan aniqlik maylining kelasi zamon formasi sifatida qo'llangan. Shu davrga oid filologik asarlarda ham

kelasi zamon fe'li sifatida ifodalangan. Qadimgi uyg'ur tiliga oid manbalarda ham bu forma asosan kelasi zamon fe'lini tashkil etib, istak, tilak, maqsad kabi ma'nolarni ifodalashda ham qo'llangan. Eski o'zbek tilida esa, ayniqsa, XV—XIX asrlar davomida *-g'ay* affiksli forma juda aktiv iste'molda bo'lib, yuqorida ko'rganimizdek, xilma-xil ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Bu forma hozir ham har xil turkiy tillarda turli ma'nolarda qo'llanadi. Masalan, *oltoy*, *xakas*, *tuva*, *to'falar*, *sho'r* tillarida istak, tilak, iltimos, maqsad, niyat, umid, taxmin kabi ma'nolarda qo'llanadi. Hozirgi o'zbek tilida esa bu formaning iste'mol doirasi ancha chegaralangan bo'lib, istak, tilak, iltimos kabi ma'nolarda do'llanadi. Hozirgi uyg'ur, tatar, boshqird, qirg'iz, qoraqalpoq tillarida ham shunday.

Demak, *-g'ay* affiksli forma turkiy tillarda dastlab asosan aniqlik maylining kelasi zamon formasi sifatida shakllangan bo'lib, keyinchalik kelasi zamon tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil ma'nolarda qo'llangan. *-g'ay* affiksli formaning xilma-xil ma'nolarda qo'llanishi uning nomlanishida ham har xilliklar paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Masalan, N. F. Katanov turkologik adabiyotlarda bu formaning quyidagicha to'rt xil nom bilan atalishini qayd qilgan: «*soslagatel'noe naklonenie*», «*jelatel'noe naklonenie*», «*будущее время*», «*предупредитель'ная форма jelatel'nogo nakloneniya*».<sup>28</sup> Keyingi davrlarga oid adabiyotlarda bu formaning nomlanishi yana ham har xil bo'lib borgan. Qisqasi, umumturkologik adabiyotlarda, shuningdek, har xil turkiy tillarga oid asarlarda bu formaning yigirmadan ortiq nom bilan atalishi kuzatiladi. Bu o'rinda shu narsani hisobga olish kerakki, ushbu formani u yoki bu nom bilan atashda avtorlar tekshirilayotgan davr tilida (yoki yodgorlik tilida) va har bir turkiy tilda bu formaning ifodalagan konkret ma'nosidan kelib chiqqanlar. Bu tabiiy holdir.

## 2.4. *-g'u* affiksli forma

<sup>28</sup> Н. Ф. Катанов. Опыт исследования урянхайского языка с указанием главнейших родственных отношений его к другим языкам тюркского корня, Казань, 1903, стр. 610.

Kelasi zamon fe'lining *-g'u* affiksli formasi eski o'zbek tili uchun xarakterli bo'lib, hozirgi o'zbek tilida bu formaning qo'llanishi ancha chegaralangan va asosan she'riy asarlarda uchraydi.

Kelasi zamon fe'lining *-g'u* affiksli formasi qadimgi uyg'ur tiliga oid manbalarda ham iste'molda bo'lgan, o'rxun-enisey tekstlarida uchramaydi, o'guz va qipchoq gruppasidagi turkiy tillarga oid yozma yodgorliklarda qo'llangani ham qayd qilinmagan. O'guz gruppasidagi tillarning ko'pchiligida bu forma hozir ham qo'llanmaydi. Yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, *-g'u* affiksli forma tarixan qorluq gruppasidagi turkiy tillar uchun xos bo'lgan. Bu fikrni Mahmud Qoshg'ariyning ma'lumoti ham tasdiqlaydi. Uning ko'rsatishicha, XI asrda *-g'u* affiksli forma chigil, yag'mo, tuxsi, arg'u, uygur va boshqa ayrim turklar tilida qo'llangan bo'lib, o'g'iz, qipchoq, bajanak, bulg'orlar tilida bu forma o'rnida *-asbi/-əsi* affiksli forma qo'llangan.

Eski o'zbek tilida kelasi zamon fe'lini yasovchi *-g'u* affiksi jarangli [g'], [g] undoshlari bilan boshlanuvchi *-g'y/-gY* va jarangsiz [q], [k] undoshlari bilan boshlanuvchi *-qu/-kY* variantlarida qo'llangan. Bulardan qaysi birining ishlatilishi shu affiksni qabul qilgan fe'l o'zagining qattiq yoki yumshoqligiga, shuningdek, fe'l oxiridagi undosh tovushning jarangli yoki jarangsiz bo'lishiga bogliq bo'lgan. Masalan: *al + g'u*, *bil + gY*, *qorq + qu*, *tuq + qu* (<*tug'+qu*,) *yet + kY*, *tek + kY* (<*teg + kY*), *bashla + g'u ishlə + gu*.

*-g'u* affiksining etimologiyasi aniqlangan emas. Ba'zi tadqiqotchilar bu affiksni etimologik jihatdan *bilge* tipidagi sifatdoshni yasovchi *-g'a(-gə)* affiksi bilan birlashtiradilar, to'g'rirog'i, ular *-g'a* affiksi *-g'u* affiksidan kelib chiqqan, degan fikrni aytadilar.

Mavjud faktlarning ko'rsatishicha, *-g'u* va *-g'a* affikslari etimologik jihatdan haqiqatan ham bir-birlari bilan o'zaro bog'liqdir. Lekin bular biri ikkinchisidan emas, balki bir manba asosida parallel ravishda rivojlangan affikslardir. Gap shundaki, *bilgə* tipidagi sifatdosh formasini yasovchi *-g'a* murakkab affiks bo'lib, ikki mustaqil affiksning birikuvidan tashkil topgan (*-g' + a*), ya'ni *-g'(-g)* affiksi

bilan yasalgan *bilig* (<bil+[i]g — «ilm, bilim, aql» ma'nosida) tipidagi formaga *-a(-ə)* qo'shilishi bilan *bilgə* (<bil+[i]g+a) tipidagi sifatdosh formasi hosil bo'lgan. *Bilgy* tipidagi sifatdosh formasini yasovchi *-g'u* affiksi ham shu xilda murakkab affiks bo'lgan (*-g'+u*), ya'ni *-g'(-g)* affiksli *bilig* (<bil + [i]g) tipidagi formaga *-u(-y)* qo'shilishi bilan *bilgy* (<bil+ [i]g +y) tipidagi sifatdosh formasi hosil bo'lgan. Mana shu jihatdan *-g'u* va *-g'a* affikslari o'zaro birlashadilar. Lekin bular ma'no va funktsiyasi jihatdan farqlanadilar. *Bilgə* tipidagi forma ish-harakatning bajaruvchisini yoki uning harakati, holati va boshqa xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan belgisini ko'rsatuvchi sifatdosh vazifasini bajargan. Ya'ni bu sifatdosh shaxsga nisbatan qo'llangan (masalan: *bilgə* — «olim, bilag'on, oqil, aqlli, dono» ma'nosida, *bilgə beg* — «ilmli, aqlli, donishmand beg» ma'nosida). *Bilgy* tipidagi sifatdosh esa predmet yoki voqea-hodisalarning funktsiyasi, xususiyati kabi belgilarini ko'rsatgan. Ya'ni bu sifatdosh predmet va voqea-hodisalarga nisbatan qo'llangan (masalan, *kesgu nəḡ* — «kesadigan narsa», *yegy nəḡ* — «eyiladigan narsa»)<sup>29</sup>. Shu asosda keyinchalik *chalg'u*, *chopqi* (<chap + qu), *supurgi* (<supur + gy) kabi predmet nomlari, *achit-qi* (<ачыт + qu), *kuydirgi* (<kuydyr+ gy), *tomizg'i* (<тамыз + g'u) kabi harakat natijasini anglatuvchi nomlar va *kulgi* (<kul + + gu), *sevgi* (<sev + gy), *sezgi* (<sez + gy) kabi his-tuyg'u bilan bog'liq bo'lgan holatni ifodalovchi nomlar hosil bo'lgan. Ikkinchi tomondan, *-g'u* affiksli sifatdosh predikativ funktsiyada ham qo'llana boshlagan va aniq (yoki qat'iy) kelasi zamon fe'li vazifasini bajargan.

Demak, hozirgi til nuqtayi nazaridan tarkibiy qismlarga ajralmaydigan bir butun affiks sifatida tasavvur qilinuvchi *-g'u* ham *-g'a* affiksi kabi tarixan ikki mustakil affiksning birikuvidan tashkil topgan murakkab affiks bo'lgan.

Eski o'zbek tilida *-g'u* affiksli kelasi zamon fe'lining shaxs-son formalari *shaxs-son formalari -m, -ḡ, -sɨ/-si, -mɨz/-miz, -ḡɨz/-ḡiz, -larɨ/-ləri affikslari yordamida yasalgan: Hech ranj zahir olmay men xud əlgym eytabib* (Nav. G'S,

<sup>29</sup> *-əa(-əə)* affiksli *bilgə* va *-əy(-əy)* affiksli *bilgy* tipidagi formalarni Maхмуд Кошғарий ҳам шу хилда изоҳлаган (Махмуд Қошғарий. Девону луғотит турк, I том, 52—53, 55, 403-бетлар; II том, 71—73, 372 373- бетлар; III том, 228, 331-бетлар)

8a). *Qalg'umыз qal'ada maxbus abad (ShN, 35).*

Bu fe'ning bo'lishsiz formasi quyidagi ikki yo'l bilan yasalgan:

a) bo'lishsizlik affiksi *-ma/-me* yordamida: *Bag' ichrə kirib sarv-u ravang'a asla // kəz salmag'um, ey sarv-u ravanым sensiz (Huv., 120). Adam diyarig'a ham tapmag'uñ xabar mendin (Nav. FK, 145 b). Ayitmaq munda ajat olmag'usы (Nav. SS, 32).*

b) yo'q inkor so'z yordamida yasalgan: *Ul aytqancha ayta alg'um yoq (Nav. SS, 42). Bil ke tamquñ yoq bu rasvai jahandын yaxshыraq (Nav. G'S, 60 a).*

Yozma yodgorliklarda *-g'u* affiksli kelasi zamon fe'liga ko'pincha *tur-* holat fe'lining hozirgi-kelasi zamon formasi *turur (durur)* yoki uning qisqargan formalari *tur // tyr, durr // dyr* qo'shilib kelgan. Lekin ma'noda hech qanday o'zgarish bo'lmagan.

XIV asrning oxirlariga qadar *tur-* holat fe'li asosan *turur* formasida qo'shilgan: *Nə kim, yer ызrə boldachы turur, halak bolg'usы turur (Taf., 65 a). Sizlərnı urug'uñыз birlə əldыrgыsi turur (Rabg', 86).*

XV asrdan boshlab asosan *dur // dyr*, ba'zan *turur // durur* yoki *tur // tyr* formasida qo'shilgan.

a) bo'lishli formasiga va *-ma/-mə* yordamida yasalgan bo'lishsiz formasiga asosan *dur // dyr* qo'shilgan bo'lib, ba'zan *durur* qo'shilishi ham uchraydi. Mas: *Kelməгүндүг, intizar otыг'a janым өртəmə (Nav. FK, 165 b). Barmag'umdur yүгүбən yolumg'a (ShN, 203).*

b) yo'q inkor so'zi yordamida yasalgan bo'lishsiz formasiga asosan *tur // tyr* qo'shilgan bo'lib, ba'zan *turur* qo'shilishi ham kuzatiladi: *Emdi kishidə aql-u xirad qalg'usы yoqtur (Otoyı, 51 b). Hechkingə bolg'usы yoqtur g'avg'a (ShN, 31).*

Shunday qilib, eski o'zbek tilida *-g'u* affiksli kelasi zamon fe'lining shaxs-son affikslari bilan tuslanish paradigmasi quyidagi ko'rinishda bo'lgan:

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I Shaxs	<i>alg'um</i> <i>alg'umdur</i>	<i>alg'umыз</i> <i>alg'umызdur</i>



	<i>alg'um durur</i> <i>alg'um turur</i>	<i>alg'umыз durur</i> <i>alg'kмыз turur</i>
II Shaxs	<i>alg'uq</i> <i>alg'uqdir</i> <i>alg'uq durur</i> <i>alg'uq turur</i>	<i>alg'uqыз</i> <i>alg'uqызdur</i> <i>alg'uqыз durur</i> <i>alg'uqыз turur</i>
III Shaxs	<i>alg'usy</i> <i>alg'usydur</i> <i>alg'usy durur</i> <i>alg'usy turur</i>	<i>alg'ularы</i> <i>alg'ularыdur</i> <i>alg'ularы durur</i> <i>alg'ularы turur</i>

Bo'lishsiz formalari: *almag'um*, *almag'umdur*, *almag'um durur*, *almag'um turur*; *alg'um yo'q*, *alg'um yoqtur*, *alg'um yoq turur* kabi.

-g'u affiksli kelasi zamon fe'li «Qutadg'u bilig» tilida keng qo'llangan bo'lib, III shaxs birligining ifodalanishi bo'yicha bu asar o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Eski o'zbek tiliga oid yozma manbalarda -g'u affiksli kelasi zamon fe'lining III shaxs birligi, yuqorida qayd qilinganidek, -sy /-si affiksi yordamida yasalgan (*alg'u+sy*, *bilgυ+si* kabi), shuningdek, *turur* (<*durur*<*dur* // *dur*) holat fe'li qo'shilganda ham III shaxs birligida -cy /-cu affiksi saqlangan (*alg'u + sy turur*, *alg'u + sy durur*, *alg'u + si + dur* kabi). «Qutadg'u bilig»da esa -g'u affiksli kelasi zamon fe'lining III shaxs birligi quyidagicha besh xil yo'l bilan ifodalangan:

1) hech qanday qo'shimcha orttirilmagan: *Өщүң өлгү axir bu atың qalыр* (QB, 161 b).

2) *turur* holat fe'li qo'shilgan: *Bu dunya nәңi barcha qalg'u turur* (QB, 210 b).

3) -sy /-si affiksi qo'shilgan: *Nәchә qachsa axir өлүм tutg'usy* (QB, 56 b).

4) *ol* olmoshi qo'shilgan: *Osal bolma, axir өзүң өлгү ol* (QB, 60 a).

5) -sy /-si affiksi va *ol* olmoshi qo'shilgan:

*Nәрәк ганж urur-sән bu altun-kүтүш,*

*Sаңар тәгкүsi ol iki бөз ulush* (QB, 57 b).

-g'u affiksli kelasi zamon fe'li ish-harakatning bajarilishi (yoki bajarilmasligi)

aniq va qat'iy ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun bu formani «aniq kelasi zamon fe'li» yoki «qat'iy kelasi zamon fe'li» nomi bilan atash mumkin: *Sizlär- ni ururuñyız birlä öldyrgyşy turur (Rabg', 8 b). Ne kim, yer uzrə boldachy turur, halak bolg'usy turur (Taf., 65 a).*

-g'u affiksli kelasi zamon fe'lida ish-harakatning bajarilishidagi (yoki bajarilmasligidagi) aniqlik, qat'iylik ma'nosidan tashqari zarurlik ottenkasi ham mavjud, bu tabiiy holdir. Chunki aniqlik, qat'iylik va zarurlik bir-biri bilan yaqin tushunchalardir. -g'u affiksli formaning bu ma'noda qo'llanishi «Qutadg'u bilig» tili uchun xarakterli bo'lgan.

«Qutadg'u bilig»da -g'u affiksli forma zarurlik ma'nosida ko'pincha *kerək (kerek)* so'zi bilan birga qo'llangan:

*Nəchə ma arыр kəlsə barg'u kərək,*

*Ilikə təgib, bir kəryngy kərək (QB, 128 a).*

*Qayu kim tug'ar ərsə əlgü kərək,*

*Qayu nəñ ag'ar ərsə ilgü kərək (QB, 46 a).*

-g'u affiksli formaning *kərək* so'zi bilan birga qo'llanib, zarurlik ma'nosini ifodalashi XIII—XIV asrlarga oid manbalarda ham uchraydi.

Keyingi davrlarda -g'u affiksli formada zarurlik ma'nosi kuchsizlana borgan va u asosan aniq (yoki qat'iy) kelasi zamon fe'li sifatida shakllangan.

-g'u affiksli fe'lga *kel-* fe'li birikib, asosiy fe'ldan anglashilgan ish-harakatni bajarishni istash, xohlash kabi ma'nolar ifodalanadi. Yozma yodgorliklarda -g'u affiksli formaning bunday qo'llanishi sporadik xarakterga ega bo'lib, *kel-* fe'li faqat hozirgi-kelasi zamon formasida qo'shilgan (*g'u + kelyr*):

*Xasta kəñlum ertənur, goya sevər janym barur,*

*Yıg'lag'um kelyr magar gulbargi xandanym barur (Nav. G'S. 33 a).*

-g'u affiksli formaning bunday qo'llanishi «Qutadg'u bilig» va qadimgi uyg'ur tiliga oid manbalarda ham uchraydi: *Ay inilərim mənñ bu künki kün ərtingy qorqqum bəliñləgüm kəlir (Olt yor., 174).*

*Ilikə ətündi, ayur: mən bu kun,*

*Qadashymqa barg‘um kəlir ɵrtykun (QB, 203 b).*

-g‘u affiksli formaning *kel-* fe‘li bilan birga istak, xohish kabi ma‘nolarni ifodalashi hozirgi o‘zbek tilida aktivlashgan bo‘lib, *kel-* fe‘li turli zamon va mayl formalarida kela oladi. Masalan: *borgim keldi (borgim kelmadi), borgim kelyapti (borgim kelmayapti), borgim keladi (borgim kelmaydi), borgim kelsa (borgim kelmasa), borgim kelardi (borgim kelmasdi)* kabi.

Masalan: -g‘u affiksli formaning bunday qo‘llanishi hozirgi uyg‘ur, qozoq, qoraqalpoq tillari uchun ham xarakterli ekanligi qayd qilingan.

### **III BOB. FE‘L ZAMONLARINING MAKTAB DARSLIKLARIDA O‘QITILISHI**

Umumta‘lim maktablarida 6- sinf ona tili o‘quv dasturida «O‘tgan zamon shakllari» mavzusi 2 soat berilgan. Biz dars ishlanmaga mavzu qilib aynan shu mavzuni oldik.

**Mavzu: O‘tgan zamon shakllari.**

**Dars maqsadi: 1. Ta‘limiy maqsad:** O‘quvchilarga o‘tgan zamon shakllari haqida ma‘lumotlar berish.

**2. Tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarga milliy qadriyatlarimizga hurmat hissini singdirish, ularda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad:** O‘quvchilarni mustaqil va mantiqiy fikrlay olishga o‘rgatish, ravon va ifodali o‘qish malakasini oshirish.

**Dars jihozlari:** Darslik, tarqatma materiallar, slayd, kitoblar va materiallar.

**Dars metodlari:** „ Tezkor savol-javob“, „Mosini tanlang“, „Qarorlar shajarasi“.

**Dars shiori:** „ Ilmdan bir shu’la dilga tushgan on,  
Shundan bilursanki, ilm bepayon”.

**Dars rejasi:**

1. Tashkiliy qism – 5 daqiqa
2. O‘tilgan mavzuni takrorlash – 10 daqiqa
3. Yangi mavzu bayoni – 8 daqiqa
4. Mustahkamlash – 15 daqiqa
5. Dars baholanishi va uyga vazifa – 7 daqiqa

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:** O‘quvchilar bilan salomlashiladi. Davomat va o‘quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Sinf ozodaligi qaraladi. Darsning maqsad va vazifalari o‘quvchilarga tanishtiriladi. Sinf 3 guruhga ajratiladi.

**II. O‘tilgan mavzuni takrorlash:** O‘tgan darsda fe’llarning zamon shakllari mavzusi o‘tilgan. O‘tilgan mavzu „Tezkor savol-javob” usuli yordamida so‘raladi va uyga vazifa og‘zaki usulda o‘qib tekshiriladi. Savollar kichik kartochkalarga yozilgan, ularni har bitta guruhlarga tarqatiladi. Savollar:

1. Fe’l deb nimaga aytiladi?
2. Fe’l qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
3. Fe’lning munosabat shakllariga nimalar kiradi?
4. Fe’llarda nechta zamon mavjud?
5. O‘tgan zamon haqida nimalarni bilasiz?

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Aziz o‘quvchilar, biz o‘tgan darsda fe’l zamonlari haqida umumiy ma’lumot olgan edik. Fe’l uchta zamonga ega ekanligini: o‘tgan zamon, hozirgi zamon va kelasi zamonlardan iborat ekanligini bilib olgan edik. Bugungi darsimizda esa shulardan o‘tgan zamon shakllariga chuqurroq to‘xtalib o‘tamiz.

O‘tgan zamon shakli harakat va holatning gap aytilayotgan vaqtdan oldin bo‘lganligini bildiradi. Bu zamon shakllari fe’l asoslariga –di, -(i)b, -gan(kan,qan) qo‘shimchalarini va ulardan keyin shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘shish orqali

yasaladi. Bu o'tgan zamon fe'l shaklining hozirgi o'zbek tilidagi yasalishi hisoblanadi. O'tgan zamon shakllarini qadimgi asarida fe'lning zamon shakllarini ko'plab uchratishimiz mumkin. Faqat o'tgan zamon shakllari kam qo'llangan. Bu fe'lning birinchi shaxs ko'pligi bir necha o'rindagina mavjud ekan. Masalan: turduq, kelduk, barduq kabilar.

Navoiy asarlarida ham o'tgan zamon –mish affiksini qo'shish orqali yasalgan.

Masalan: Faramush olmisham ahhob yadidin aningdekim,

Valolar ichki kim salmish firoqing.

**206-mashq. Gaplarni ko'chiring. O'tgan zamon fellarini toping.**


1. Qizlar to'da-to'da bo'lib lapar aytishdi.

2. Sinf rahbarimiz Hasan aka menga bildirmay Ganini uyga yuboribdilar.

3. Aka-ukalar to'qayda bo'ri, to'ng'iz, tulkilar ko'p bo'lishini eshitgan edi.

4. Manashu shotutni bobosi ekkan ekan.

**207-mashq.** Bu mashqni „Mosini tanlang“ usuli yordamida bajaramiz. Bunda quyida berilgan fe'llardan mosini tanlab gaplarni tugallash zarur. Har bitta guruhga alohida plakat tarqatiladi. Mashq tekshirilib g'olib guruh baholanadi.



Qoldim, sevindim,  
turaman, yotar edi,  
kirdi. ko`rardi

1. Atrof ko'm-ko'k bo'lib, yo'l chetida qoqigullar, lolalar,

chuchmomalar qiyg‘os ochilib ... .

2. Men juda quvondim: mana, endi o‘sib ham ..., yoshim o‘n to‘rtga ..., odamlar menga ishonadigan bo‘lib ..., deb ich-ichimdan .... .


3. Men tez-tez Toshkentga kelib .... .

4. Bolakay tog‘lar orasida yashovchi cho‘pon tog‘asini juda yaxshi .... .

Yangi mavzuni mustahkamlash.

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun „Qarorlar shajarasi“ usulidan foydalanamiz. Uchta guruhga ham bittadan qog‘oz beriladi. Bunga guruhlar fe‘l haqida o‘rgangan bilimlarini yozishadi. 5 daqiqa vaqt beriladi. Qaysi guruh tez, aniq, to‘g‘ri va ko‘p ma‘lumot bersa, shu guruh g‘olib bo‘ladi.

### „Qarorlar shajarasi“



#### **IV. Baholash va uyga vazifa.**

Darsda fa'ol qatnashgan o'quvchilar a'lo baholar bilan baholanadi va g'olib guruh aniqlanadi.

Uyga vazifa : 208-mashq. She'rni yod oling, unda ishlatilgan fe'llarni topib, o'tgan zamon shakliga aylantiring.

### **UMUMIY XULOSA**

1. Fe'l zamonlarining shakllanishi turkiy tillar taraqqiyotining qadimgi davrlaridan boshlangan bo'lib, bu protsess hozir ham tugallangan emas, ayniqsa, hozirgi va kelasi zamon formalari o'rtasida semantik differentsiyalanish protsessi turkiy tillarning ko'pchiligida hozir ham davom etmoqda. Bu hol zamon ma'nolarini ifodalovchi formalarning miqdori va chegarasi, bu formalarning o'zaro munosabati, zamon sistemasidagi o'rni, bularning nomlanishi kabi masalalar bo'yicha o'zbek tilshunosligida, shuningdek, boshqa turkiy tillarga oid adabiyotlarda har xil qarashlarning paydo bo'lishiga asos bo'lgan sabablardan biridir.

2. O'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti davomida fe'l zamomlari bo'yicha ma'lum o'zgarishlar yuz bergan: zamon ma'nosini ifodalovchi yangi formalar vujudga keldi, natijada qadimgi formalarning bir gruppasi o'z mavqeyini yo'qota bordi, ayrimlari esa ma'lum davrlarga kelib iste'moldan chiqib qoldi yoki kam qo'llanadigan bo'lib qoldi, parallel qo'llanib kelayotgan funktsiyadosh formalar

ma'nosi jihatdan differentsiyalasha bordi, ayrim formalar shaklan o'zgarib, takomillasha bordi.

3. Eski o'zbek tilida fe'l zamonlarining ko'p formali bo'lishi, bir xil ma'noni ifodalash uchun ko'pincha parallel formalar qo'llanishi ma'lum tarixiy sharoitlar bilan bog'liq bo'lgan hodisadir, ya'ni paralel qo'llanuvchi formalarning ayrimlari qadimgi (arxaik) formalarni tashkil etsa, ba'zilari dialektal xususiyata ega bo'lgan yoki boshqa turkiy tillardan o'tgan formalardir. Shuning uchun ham bunday formalarning ko'pchiligi o'zbek tili taraqqiyotining ma'lum davrlarida iste'molda bo'lgan yoki ayrim yodgorliklardagina uchraydi.

4. Eski o'zbek tilida zamon formalaridan ayrimlarining qo'llanishi she'riy asarlar bilan chegaralangan bo'lib, bularning bir gruppasi boshqa turkiy tillardan qabul qilingan yoki dialektal formalar bo'lsa, boshqalari qadimgi (arxaik)

formalardir. Masalan, o'tgan zamon fe'lining *almısham* tipidagi 1 shaxs birlik formasi, hozirgi-kelasi zamon fe'lning *aluram*, *almam* tipidagi 1 shaxs birlik formalari o'g'uz gruppasidagi turkiy tillar uchun xos formalaridir. Kelasi zamon fe'lining *-ga* affiksli *alg'a-men* tipidagi formasi *-gay* affiksli *algay-men* tipidagi formaning qadimgi ko'rinishi bo'lib, bu forma ham faqat she'riy asarlarda qo'llangan.

5. O'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti davomida zamon formalarining ayrimlari shaklan o'zgarib, takomillasha borgan, ayrimlarida semantik o'zgarish yuz bergan.

Bu jihatdan *alıb turur men*, *alıb turur erdim* tipidagi o'tgan zamon fe'llarida va *ala turur men* tipidagi hozirgi zamon fe'li tarkibida yuz bergan formal o'zgarishlar xarakterli. Masalan: *alıb turur* >*alıbtur-men*>*alıbdur-men*->*alıb-men*> >*olibman*.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan o'zbek adabiy tilida *-(a)yap*, *-(a)yotir*, *-(a)yotib* affiksli *ol(a)yapman*, *olayotirman*, *olayotibman* tipidagi konkret hozirgi zamon formalarining qo'llana boshlashi va *-moqda* affiksli hozirgi zamon fe'lining aktivlasha borishi natijasida eski o'zbek tilida asosan hozirgi zamon ma'nosida



qoʻllanib kelgan *ala-men* (olaman) tipidagi forma hozirgi-kelasi zamon feʼli sifatida shakllana boshlangan. Buning natijasida eski oʻzbek tilida hozirgi-kelasi zamon feʼli vazifasini bajaruvchi *alur-men* (olarman) tipidagi forma shu davrdan boshlab kelasi zamon gumon feʼli sifatida shakllana boshlagan. Eski oʻzbek tilida perfekt maʼnosida qoʻllangan *alib-men* (olibman) tipidagi forma hozirgi oʻzbek tilida oʻtgan zamon eshitilganlik, hikoya feʼli sifatida shakllangan. Eski oʻzbek tilida koʻp maʼnoli boʻlgan *-gay* affiksli *algay-men* tipidagi forma hozirgi oʻzbek tilida asosan istak, tilak, iltimos kabi maʼnolarda qoʻllanadi.

6. Eski oʻzbek tilida isteʼmolda boʻlgan zamon formalaridan bir gruppasi hozirgi oʻzbek adabiy tilida qoʻllanmaydi; bulardan ayrimlari baʼzi oʻzbek shevalarida saqlangan. Masalan, oʻtgan zamon feʼlining *aldım erdi* tipidagi analitik formasining Qorabuloq shevasida saqlanganligi qayd qilingan.

7. Yozma manbalarning koʻrsatishicha, oʻzbek tilida feʼlning zamon formalari taraqqiyotini uchta asosiy bosqichga boʻlish mumkin: Birinchi bosqichni XIV asr oxirlarigacha boʻlgan davr tashkil etadi. Bu davr eski oʻzbek adabiy tilining shakllanish arafasi boʻlib, parallel qoʻllanuvchi funktsiyadosh formalarning koʻpligi, qadimgi (arxaik) formalarning aktiv qoʻllanib kelishi, dialektal yoki boshqa turkiy tillarga xos boʻlgan formalarning koʻplab isteʼmolda boʻlishi bilan xarakterlanadi. Ikkinchi bosqich XIV asr oxirlaridan XIX asrning oxirlarigacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi. Bu davrda eski oʻzbek adabiy tili shakllangan boʻlib, uning grammatik qurilishi, xususan, zamon formalari maʼlum darajada tartibga tushgan. Oʻzbek tilida feʼlning zamon formalari taraqqiyotidagi uchinchi bosqich XIX asr oxirlaridan boshlangan boʻlib, bu davr yangi oʻzbek adabiy tilining shakllanishi arafasidir. Bu davrda oʻzbek adabiyotida demokratik oqim paydo boʻldi, matbuot vujudga keldi, oʻzbek tilida gazeta, jurnal va kitoblar nashr etila boshladi. Bu esa oʻz navbatida adabiy til bilan xalq soʻzlashuv tilining yanada yaqinlasha borishiga va adabiy tilning xalq soʻzlashuv tili hisobiga yanada boyib borishiga zamin yaratdi. Bu hol maʼlum darajada feʼl zamonlari sohasida ham oʻz

aksini topdi. Masalan, konkret hozirgi zamon ma'nosini ifodalovchi *-(a)yap*, *-(a)yotir*, *-(a)yotib* affiksli formalarining adabiy tilda qo'llanishi shu davrdan boshlab kuzatiladi. *-moqda* affiksi hozirgi zamon fe'linng aktivlashuvi xam, *alaman* (olaman), *algur-lin* (olarman), *alib-men*, (olibman) kabi formalarda yuz bergan semantik o'zgarishlar ham shu davrdan boshlangan.

8. Eski o'zbek tilida ham hozirgi o'zbek tilidagi kabi fe'lning aniqlik maylida har uchala grammatik zamon mavjud bo'lgan. Shu bilan birga, fe'l zamonlarining ko'p formali bo'lishi, bu formalarnng murakkabligi, bularning qo'llanishi va shaxs- son affikslari bilan o'zgarishidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan eski o'zbek tili hozirgi o'zbek tilidan farqlanadi.

## Shartli qisqartmalar

### 1. Manbalar.

**en.T** – enisey tekstlari (S. e. Malov. eniseyskaya pis'mennost' tyurkov, M. 1952).

**Irq bit.** – Irq bitig (Gadatel'naya kshijka) (S. e. Malov. Pamyatniki drevne-tyurkskoy pis'mennosti. M. 1951)

**KT.** – Kultegin sha'niga qo'yilgan yodnoma (S. e. Malov. Pamyatniki drevne-tyurkskoy pis'mennosti. M. 1951).

**Mog.** – Mogilyan sha'niga qo'yilgan yodnoma (S. e. Malov. Pamyatniki drevne-tyurkskoy pis'mennosti Mongolii i Kirgizii M. 1951).

**Olt. Yor.** – Oltin yoruq (Zolotoy blesk). (S. e. Malov. Pamyatniki drevne-tyurkskoy pis'mennosti. M. 1951).

**Ong.** – Ongin yodnomasi. (S. e. Malov. Pamyatniki drevne-tyurkskoy pis'mennosti Mongolii i Kirgizii M. 1951).

**Ton.** – To‘nyuquq sha‘niga qo‘yilgan yodnoma. (S. e. Malov. Pamyatniki drevne-tyurkskoy pis‘mennosti. M. 1951).

## 2 XI-XVI asrlarga oid manbalar

**Kod kum.** – Kodeks kumanikus (V. V. Radlov nashri), SPb., 1887.

**MK** – Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. (Tarjimon va nashrga tayorlovchi S. M. Mutallibov), Toshkent, 1-tom 1960; 2-tom 1961. 3-tom 1963.

**MN** – Xorazmiy Muhabbatnoma (Qo‘l yozma). Britaniya muzeyi.

**NF** – Nahjul farodis (E.I. Fazyllov. Starouzbekskiy yazyk. Xorezmiyskie pamyatniki XIV veka. Tashkent. 1 – 1966, 2 – 1971).

**Rabg‘. (T)** – Rabg‘uziy. Qisas ul- anbiyo (Qo‘l yozma), O‘zSSR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, inv. № 1834.

**Saroyi** – Sayfi Saroyi. Guliston bit turkiy (E. I. Fazyllov. Starouzbekskiy yazyk. Xorezmiyskie pamyatniki XIV veka, Tashkent. 1- 1966, 2- 1971).

57.

**Taf.** – Tafsir (Qo‘l yozma), SSSR FA Sharqshunoslik instituti s. 197.

**XSh** – Qutb. Xisrav va Shirin (A. Zayonchkovskiy nashri), Varshava, 1958.

**O‘N** – O‘g‘uznoma (A. M. Shcherbak nashri), Moskva. 1959.

**QB** – Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Qo‘l yozma. Namagan nusxasi), O‘zSS FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Inv. № 1809.

**HH** – Ahmad Yugnakiy. Hibat ul haqoyiq (Rashid Rahmaiy Arat nashri). Istanbul, 1951.

## 3. XV-XIX asrlarga oid manbalar

**Amiriy** – Yusuf Amiriy. Bang va chog‘ir orasida munozara (Qo‘l yozma).

**Ahmadiy** – Ahmadiy. Rudjomaning orasinda munozara va mubohasa (Qo‘l yozma).

**BN** – Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma (N. I. Il‘minskiy nashri), Kazan.

**Bobir** – Bobur. Devon (A. N. Samoylovich nashri), Petrograd, 1917.

**Gulx.** – Gulxaniy. Zarbulmasal va gʻazallar (Nashrga tayyorlovchi H. Yoqubov), Toshkent, 1958.

**DN** – Yusuf Amiriy. Dahnoma (Qoʻl yozma).

**LN** – Xoʻjandiy. Latofatnoma (Qoʻl yozma).

**Lutf** – Lutfiy. Devon (Qoʻl yozma).

**Munis** – Shermuhammad Munis. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi Yunus Yusupov). Toshkent, 1957.

**Muq** – Muqimiy. Tanlagan asarlar (Nashrga tayyorlovchi Gʻulom Karimov). Toshkent, 1958.

**Nav. LT** – Alisher Navoiy. Lison ut tayr (Ilmiy-tanqidiy tekst, tayyorlovchi Sharofiddin Eshonxoʻjaev), Toshkent, 1965.

**Nav. MA** – Alisher Navoiy. „Mezon ul-avzon” (Ilmiy-tanqidiy tekst, tayyorlovchi Izzat Sulton), Toshkent. 1949.

**Nav. ML** – Alisher Navoiy „Muhokamat ul- lugʻatayn” (M. Katmer nashri).

**Nav. MN** – Alisher Navoiy. „Majolis un-nafois” (Ilmiy-tanqidiy tekst, tayyorlovchi Suyima Gʻanieva). Toshkent, 1961.

**Atoiy** – Atoiy. Devon (qoʻl yozma). SSSR FA Sharqshunoslik instituti.

**TN** – Toʻtinoma (Qoʻl yozma).

**ShN** – Muhammad Solih. „Shayboniynoma” (P. M. Melioranskiy nashri). 1908.

**Sh. Tar** – Abulgʻozi Bahodirxon. „Shajarai tarokima” (ilmiy-tanqidiy tekst, tayyorlovchi A. N. Kononov). M., 1958.

**Sh. Turk** – Abulgʻozi Bahodirxon. „Shajarai turk”. (N. Rumyantsev nashri), KAzanʻ 1825.

**Haydar** – Haydar Xorazmiy. „Mahzan ul –asror” (Qoʻl yozma).

**Huv.** – Huvaydo. Devon. (Ltografik nashr), Toshkent, 1913.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shukurov Sh. O‘zbek tilida fe’l zamonlari taraqqiyoti. – T., 1976 yil, 21-94-betlar.
2. G‘ulomov A.G‘. Fe’l. – T., 1954. 45-bet.
3. U.Tursunov., J.Muxtarov., Sh.Rahmatullaev. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. T., 1965, 82-bet.
4. M.Mirzaev., S.Usmonov., I.Rasulov. “O‘zbek tili”. T., 1966. 152-bet.
5. G‘.Abdurahmonov., Sh.Shukurov. “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi”. Morfologiya va sintaksis. T., 1973.
6. A.Hojiev. -moqchi affiksi bilan yasalgan fe’l formasi haqida. O‘zTA, 1966. 4-son. 29-bet.
7. Sh.Shukurov. Fe’l tarixidan. Qadimgi turkiy yodgorliklar tilida mayl va zamon formalari. T., 1970.
8. A.H.Sulaymonov., A.H.Xojiev., J.Juraeva.Fe’l zamonlari. T., 1952. 3-38-betlar.
9. A.Hojiev. Fe’lning o‘tgan zamon formalari. O‘zTA, 1969, 2-son.
10. K.M.Musaev. Fonetika va morfologiya. M., 1964. Str.272.
11. Sh.Shoabdurahmonov. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari. T., 1962, 165-bet.
12. E.Fozilov. O‘zbek tilining tarixiy morfologiyasi. T., 1965, 115-bet.
13. F.A.Abdullaev. Xorazm shevalari. T., 1961. 172-bet.
14. S.N.Ivanov. O‘zbek tili perfektining inkor formasi. O‘ZTA, 1967, 5-son.
15. S.Ibragimov. O‘zbek tilining Andijon shevasi. T., 1967. 207-208 betlar.
16. Кононов. Грамматика современного узбекского литературного языка. М., -Л. 1960.
17. А.А. Yuldshaev. Аналитические формы глагола в тюркских языках. М., 1965. стр. 128-251.

18. A.A. Koklenova. Категорие времени в совземенном узбекском языке. М., 1963. стр. 10-12.
19. V.V. Reshetov. Щснови фонетики и грамматики узбекском языка. Т., 1965. стр.202.
20. N.A.Baskakov. Каракалпакский язык. II. Фонетики и морфология. М., 1952. стр. 395-397. Adilova S. O‘zbek tili mashg‘ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish (Oliy ta’lim muassasalarining rusiyzabon guruhlarida): ped fan nomz.dis. – T.: 2004. -160 b.
- 21.Begimqulov U. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007.
- 22.Muhitdinova X. Til ta’limida videomatnlar qanday uyg‘unlashadi. //Til va adabiyot ta’limi. -2015. -№8. –B.
- 23.Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi. – Tuzuvchilar: Toshkent, Sharq, 2002.
- 24.Ona tili: Umumta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov va boshq. – T.: “Ma’naviyat”, 2015. – 224 b.
- 25.Saidov M. O‘rta maktablarning 5-sinflarida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi. – T.: 2000. – B. 45.
- 26.To‘xliev B., Inog‘omova R., Abdulhatova R. Darsliklar bilan ishlash metodikasi. – Toshkent, 2008. 10 b.
- 27.To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2006.
- 28.Umarova N. Til ta’limi va ta’limiy-elektron ishlanmalar // Til va adabiyot ta’limi.. – 2005-yil – № 6. – B. 75-79.
- 29.Yusupova Sh.J. Ona tili ta’limini samaradorligini oshirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish/ noan’anaviy usullar va kompyuterdan foydalanish/: ped.fan.nom. dis.avtoref. – T.: 1998, -25-bet.

30. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.: "O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 680 b. <https://imlo.insof.uz/>
31. Юлдашева Ш., Зарипов О., Бекжанова М., Смайлова Д., Гулманова Қ., Янгибоева Г., Уразбоева Д. 5-синф учун “Она тили” фанидан электрон ўқув-методик мажмуа. – Нукус, 2016. (guvohnoma: DGU 04136)
32. <https://imlo.insof.uz/>
33. [www.hotpotatoes.net](http://www.hotpotatoes.net)
34. [www.ispring.ru](http://www.ispring.ru)
35. [www.literature.Uz](http://www.literature.Uz)
36. [www.ziyonet.Uz](http://www.ziyonet.Uz)
37. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
38. [www.kutubxona.com](http://www.kutubxona.com)
39. [www.ijod.com](http://www.ijod.com)
40. [www.adabiyot.uz](http://www.adabiyot.uz)